

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

X.V.SALIMOV

**EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA
QILISH VA TABIATDAN FOYDALANISH
BO‘YICHA ATAMA VA TUSHUNCHALARNING
IZOHLI LUG‘ATI**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan o‘quv
qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

**РУССКО-УЗБЕКСКИЙ ТОЛКОВЫЙ СЛОВАРЬ
по экологии, охране окружающей среды и природопользованию**

(Термины и понятия)

*Министерством высшего и среднего специального образования Республики
Узбекистан рекомендовано в качестве учебного пособия для ВУЗов*

TOSHKENT – 2009

Х.В.Салимов. Русско-узбекский толковый словарь по экологии, охране окружающей среды и природопользованию. (Термины и понятия). –Т.: Изд-во «Fan va texnologiya», 2009, 336 бет.

Толковый словарь содержит термины и понятия, относящиеся к общей и промышленной экологии, охране окружающей среды и природопользованию. Диапазон охвата словарем достаточно широкий. Рекомендуется в качестве учебного пособия для студентов Высших учебных заведений по направлениям: 5420100 – Биология, 5440500 – География, 5850200 – Экология и природопользование, 5860100 – Безопасность жизнедеятельности, 5520400 – Металлургия и 5540200 – Горное дело. Им могут пользоваться также специалисты сферы охраны природы, работники горной и металлургической промышленности, преподаватели, аспиранты и те, кто хочет овладеть экологическими законами, существующими в собственной среде обитания, ходом изменений, происходящих в последнее время в биосфере или просто расширить собственный словарный багаж.

Издан согласно выданному грифу и удостоверению Министерства Высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан (приказ № 251 от 6 ноября 2006 года) для использования в системе высшего образования.

Рецензенты: доктор биологических наук, проф. **БАКАЕВ С.Б.**;
кандидат технических наук, доц. **НОСИРОВ У.Ф.**

Izohli lugʻat oʻzida umumiy va sanoat ekologiyasi, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishga doir atama va tushunchalarni mujassamlagan. Lugʻat mazmun jihatdan keng qamrovli boʻlib, u Oliy oʻquv yurtlarining 5420100 – Biologiya, 5440500 – Geografiya, 5850200 – Ekologiya va tabiatdan foydalanish, 5860100 – Hayot faoliyati xavfsizligi, 5520400 – Metallurgiya va 5540200 – Konchilik ishi yoʻnalishlarida taʼlim olayotgan talabalarga oʻquv qoʻllanma sifatida tavsiya etiladi. Undan shuningdek tabiat muhofazasi sohasida faoliyat koʻrsatayotgan mutaxassislar, konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari, oʻqituvchilar, aspirantlar va oʻz yashash muhitida hukm surayotgan ekologik qonunlar, keyingi paytlar biosferada sodir boʻlayotgan oʻzgarishlarning borishi haqidagi bilimlarni egallash yoki shunchaki oʻzining lugʻat boyligini oshirish istagida boʻlgan barcha kishilar foydalanishi mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining grifi va guvohnomasiga asosan (2006 y. 6 noyabrdagi 251-sonli buyruq) undan oily taʼlim tizimida foydalanish uchun nashr etildi.

Taqrizchilar: biologiya fanlari doktori, prof. **BAQOYEV S.B.**;
texnika fanlari nomzodi, dots. **NOSIROV U.F.**

ISBN 978–9943–10–209–5

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2009.

*«На рубеже веков человечества, население нашей страны оказалось перед лицом глобальной экологической угрозы. Не замечать этого, бездействовать – значит обречь себя на вымирание»
И. Каримов.*

ПРЕДИСЛОВИЕ

К настоящему времени выпущено немало тематических словарей различных типов и содержания: этимологический, терминологический, толковый, энцикло-педический и другие. Только за последние три года в соавторстве Б.Б. Алиханова и других (2003, 2004) в Узбекистане изданы два толковых словаря по экологии. Однако человеческая цивилизация достигла уровня, когда воздействие антропогенного фактора на окружающую среду выступает на первое место. В связи с этим, чем больше знаешь собственную среду обитания и существующих в ней экологических законов, тем больше ощущаешь недостаточность в знании и, в первую очередь, словарного багажа. Тем более экология – наука бурно развивающаяся с постоянным пополнением фонда терминологии. «Кто не знает названий, тот теряет и познание вещей», – так писал известный шведский натуралист Карл Линней почти три века тому назад.

Настоящий толковый словарь включает более 1600 наименований терминов и понятий по экологии, охране окружающей среды и природопользованию. Предметное именование словаря как по «...экологии, охране окружающей среды...» исходит из того, что экология и охрана природы (природной среды или окружающей среды) – понятия весьма близкие, но не одно и то же. Экология, прежде всего, наука биологическая, изучающая все жизненные процессы, происходящие в биосфере, все существующие виды взаимосвязей между живой и неживой природой, взаимодействий биотических и абиотических компонентов среды, включая и космические явления (экология космоса). С другой стороны, современная экология тесным образом связана с внедряемыми в производство новыми технологическими процессами (промышленная экология). Примером тому цианобактерии, широко применяемые в последнее время в горном производстве, сценодесмус и другие низшие организмы в очистке сточных вод и прочие биотехнологические методы. Одним словом, экология является синтетической наукой, глубоко проникшей в разные отрасли, и поэтому перед автором возникли серьезные колебания в отборе словарного массива.

Просматривая фонд словаря, можно оспаривать необходимость включения того или другого близкого по смыслу термина в словарь. И здесь необходимо учесть явление взаимосвязанности и взаимообусловленности множества включенных в словарь терминов, так же, как и природные явления в целом. В большинстве случаев включенный термин тянет за собой цепь других добавлений ввиду необходимости соблюдения правил полноты охвата избранных автором тем. Далее, при просмотре терминов, иногда может

возникать недоумение, зачем понадобилось автором объяснять какие-то простые, всем известные или близкие по смыслу слова (например, «жизненность» и «жизнеспособность», «растения» и «растительность», «ресурсы природные» и «ресурсы природной среды» и многие другие). Такие определения совершенно необходимы, во-первых, для стандартизации, во-вторых, то, что хорошо знакомо одному, может быть непонятно другому.

Из просмотра словаря понятно, что некоторым терминам автор попытался дать энциклопедический характер, для чего ему приходилось обратиться ко многим источникам: словарям, справочникам, научным статьям, государственным нормативным документам, учебникам и учебным пособиям. Кроме того, им шире использованы собственные соображения и знания по избранной теме.

В словарь включены следующие темы: 1) структура биосферы (вид, популяция, сообщества, их иерархия); 2) среда и факторы жизни; 3) жизненные и экологические формы организмов; 4) экологические законы, принципы и правила; 5) ареалы; 6) жизненные процессы в особях, популяциях и сообществах; 7) охраняемые природные территории и объекты; 8) биологические и технологические природоохранные мероприятия; 9) ресурсосбережение и природопользование; 10) загрязнение среды, ядохимикаты; 11) социозологические проблемы; 12) проблемы эволюционной экологии; 13) естественные процессы, происходящие в абиотической среде; 14) международная охрана окружающей среды. В словарь включены также термины и понятия, одновременно относящиеся к нескольким из перечисленных выше тем.

Как видно из содержания словаря, в отличие от изданных в Узбекистане аналогичных работ, диапазон его охвата достаточно широкий и носит этимологический и отчасти энциклопедический характер. Отдельных понятий составитель старался объяснить примерами из местных условий, что делает смысл этих понятий легко доступными. Словарь рассчитан в качестве учебного пособия для студентов Высших учебных заведений по направлениям: 5420100 – Биология, 5440500 – География, 5850200 – Экология и природопользование, 5860100 – Безопасность жизнедеятельности, 5520400 – Metallургия и 5540200 – Горное дело. Им могут пользоваться также специалисты сферы охраны природы, работники горной и металлургической промышленности, преподаватели, аспиранты и те, кто хочет овладеть экологическими законами, существующими в собственной среде обитания, ходом изменений, происходящих в последнее время в биосфере или просто расширить собственный словарный багаж. За тесное сотрудничество в формировании словаря составитель приносит искреннюю благодарность доктору биологических наук профессору Бакаеву С.Б., доктору технических наук Норову Ю.Д., словареведу – кандидату филологических наук Равшанову М., кандидатам наук Тураеву А., Файзиёву А. и специалистам кафедр химической технологии и металлургии Навоийского государственного горного института. Все замечания по работе он воспримет с благодарностью по адресу: 706800, г. Навоий, ул. Южная, 27^а, Горный факультет Навоийского государственного горного института, Кафедра «Безопасность жизнедеятельности».

«Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish — o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir»

I. Karimov.

MUQADDIMA

Hozirgacha turli mavzularga bag'ishlangan etimologik, atamashunoslik, izohli, ensiklopedik va boshqa tur va mazmundagi ko'pgina lug'atlar chop etilgan. Faqatgina keyingi uch yil ichida O'zbekistonda B.B. Alixonov va boshqalar hammuallifligida (2003, 2004) ekologiya mavzusida ikkita izohli lug'at nashrdan chiqarildi. Ammo insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi shu darajaga borib yetdiki, u o'zining hayot darajasini yanada yuqoriga ko'tarish ilinjida o'z yashash muhitiga ko'rsatadigan ta'sirini behad oshirdi. Bunday sharoitda yashash muhitini, unda hukm suradigan ekologik qonuniyatlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa inson atrof muhit bilan bog'liq bo'lgan atama va tushunchalar to'g'risida yetarli bilimga ega bo'lishi shart. Agar ekologiya fani jadal rivojlanib borayotgan va kun sayin unga yangi atama va tushunchalar kirib kelayotgani e'tiborga olinadigan bo'lsa, unda kishi o'zining lug'at boyligini beto'xtov oshirib borishiga doimo ehtiyoj sezadi. «Kimki agar nomlanishni bilmasa, u hech narsani o'rganaolmaydi», - deb yozgan edi mashhur shved tabiatshunosi Karl Linney bundan gariyb uch asr ilgari.

Qo'lingizdagi ushbu izohli lug'at o'zida ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish bo'yicha 1600 dan ortiq atama va tushunchalarni qamrab olgan. Unga «Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish ... bo'yicha ...» deb nom berilishining sababi — bu ikkala tushuncha o'zaro uzviy bog'liq bo'lsada, ular aynan bir narsa emas. Ekologiya, dastavval, biologiya fanidan kelib chiqqan bo'lib, biosferadagi barcha hayot jarayonlarini, jonli va jonsiz tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni, muhitning biotik va abiotik komponentlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va shu jumladan, fazoviy hodisalarni (kosmos ekologiyasi) o'rganuvchi fan. Ikkinchi tomondan, zamonaviy ekologiya ishlab chiqarish jarayoniga yangi texnologiyalarni kiritishni ham qamrab olgan (sanoat ekologiyasi). Bunga misol qilib hozirgi kunda konchilik sanoatida sianobakteriyalardan foydalanish, oqova suvlarni tozalashda stenosdesmus va boshqa tuban organizmlarni qo'llash va shu singari qator biotexnologik jarayonlarni keltirish mumkin. Qisqa qilib aytganda, ekologiya yig'ma fan sifatida barcha sohalar ichiga kirib borgan bo'lib, bu hol lug'atning qamrovini belgilashda muallif oldiga tanlov muammolarini keltirib chiqardi.

Lug'at bilan tanishgan kishida unga ba'zi atamalarning kiritilganligi ortiqcha bo'lib tuyulishi mumkin. Bu yerda muallif ko'pchilik atamalarning tabiatdagi hodisalar singari o'zaro bog'liqligi va bir-biriga muvofiqligi, bir-birini to'ldirmoq'i kabi xususiyatlarini hisobga olgan. Ko'pchilik hollarda u yoki bu mavzuni yoritish maqsadida kiritilgan bir atama o'z ortidan o'zi bilan bog'liq bo'lgan boshqa atamalarni ham kiritishni taqozo qiladi. Bundan tashqari, lug'atga bir qarashda o'ta sodda, barchaga tanish va o'zaro o'xshash atamalar (masalan, «hayotchanlik» va «hayotchanlik qobiliyati»), «o'simliklar» va «o'simliklar dunyosi», «tabiiy resurslar va tabiiy muhit resurslari» va boshq.) ham kiritilganki, bu dastavval standartlash

uchun zarur va, qolaversa, bировga ma'lum bo'lgan atama boshqaga ma'lum bo'lmasligi mumkin.

Lug'atdan ko'rinishicha ba'zi atamalarni berishda muallif ular to'g'risida mumkin qadar ko'proq ma'lumotlarni keltirib, atamaga ensiklopedik mazmun berishga harakat qilgan. Buning uchun unga turli-tuman lug'atlarni, ma'lumotnomalar, ilmiy maqolalar va davlat me'yoriy hujjatlarini, ko'pgina darslik va o'quv qo'llanmalarini qarab chiqishga to'g'ri keldi. Lug'atlardan olingan ko'pgina atamalarning mazmun-mohiyatini muallif qayta ishlab, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitdi. Atama va tushunchalarni izohlashda o'zining shu sohadagi bilim va tajribalaridan keng foydalandi. Ba'zi atama va tushunchalarning o'quvchiga yetib borishini osonlashtirish maqsadida ularni mahalliy sharoitdan keltirilgan misollar bilan sharhlashga harakat qildi.

Mazkur izohli lug'atda quyidagi mavzularga tegishli atama va tushunchalar mujassam: 1) biosferaning tarkibi (tur, populyatsiya, uyushma va ularning iyerarxiyasi); 2) muhit va hayot omillari; 3) organizmlarning hayot va ekologik shakllari; 4) ekologik qonunlar, prinsip va qoidalar; 5) areallar; 6) individlardagi, populyatsiyalardagi va uyushmalardagi hayot jarayonlari; 7) muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va obyektlar; 8) tabiat muhofazasidagi biologik va texnologik tadbirlar; 9) resurslarni tejash va tabiatdan foydalanish; 10) muhitning ifloslanishi, kimyoviy zaharlar; 11) ijtimoiy ekologiya masalalari; 12) evolyutsion ekologiya masalalari; 13) abiotik muhitda kechadigan tabiiy jarayonlar; 14) atrof muhitning xalqaro muhofazasi. Lug'atdan, shuningdek ikki yoki undan ortiq mavzularga daxldor bo'lgan oraliq atama va tushunchalar ham joy olgan.

Yuqorida keltirilgan mavzular ro'yxatidan ko'rinish turibdiki, ushbu lug'at o'zining keng qamrovliligi hamda etimologik va ensiklopedik xususiyatlari bilan O'zbekistonda ungacha nashr etilgan ishlardan farq qiladi. Ba'zi atama va tushunchalarning o'quvchiga yetib borishini osonlashtirish maqsadida tuzuvchi ularni mahalliy sharoitdan kelib chiqqan misollar bilan sharhlashga harakat qildi. Lug'at Oliy o'quv yurtlarining 5420100 – Biologiya, 5440500 – Geografiya, 5850200 – Ekologiya va tabiatdan foydalanish, 5860100 – Hayot faoliyati xavfsizligi, 5520400 – Metallurgiya va 5540200 – Konchilik ishi yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalarga o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi. Undan shuningdek, tabiat muhofazasi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar, konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari, o'qituvchilar, aspirantlar hamda o'z yashash muhitida hukm surayotgan ekologik qonunlar va keyingi paytlar biosferada sodir bo'layotgan o'zgarishlarning borishi haqidagi bilimlarni egallash yoki shunchaki o'zining lug'at boyligini oshirish istigida bo'lgan barcha kishilar foydalanishi mumkin. Muallif lug'atning shakllanishida yaqindan hamkorlik ko'rsatgan biologiya fanlari doktori professor S.B. Baqoyevga, texnika fanlari doktori Yu.J. Norovga, lug'atshunos – filologiya fanlari nomzodi M. Ravshanovga, fan nomzodlari A.To'rayev va A. Fayziyevlarga, shuningdek Navoiy davlat konchilik institutining kimyo texnologiyasi va metallurgiya kafedralari mutaxassislariga chuqur minnatdorchilik bildirib, ish to'g'risidagi fikr-mulohazalarni quyidagi manzilga yuborishni so'raydi: 706800, Navoiy shahri, Janubiy ko'chasi, 27^o, Navoiy davlat konchilik institutining Konchilik fakulteti, «Hayot faoliyati xavfsizligi» kafedrası.

О построении словаря

Термины и понятия в словаре приведены на русском и узбекском языках в алфавитном порядке. Узбекские названия видов птиц заимствованы из Т. Захидова (1957), а растений – из С. Сахобиддинова (1953). Знаки единиц измерения в словарь даны в соответствии со стандартом O'z DST 8.012: 2005. Термины и понятия даны в виде заглавного слова и набраны полужирным шрифтом. За заглавным словом в скобках дано указание на его этимологию (происхождению) в виде иностранного слова (этимона). Когда этимон является простым словом, то его перевод дается непосредственно. Например, **Бактерии** (гр. *bakteria* – палочка). Если возникает необходимость на перевод слова по отдельным этимонам, то производится сложение переведенных этимонов. В таких случаях знак « < » означает «происходит от ...», или «на основе...». Например, **Бактерии фототрофные** (< гр. *bakteria* – палочка + *photo* – свет + *trophē* – пища). В некоторых сложных заглавиях, включающих одновременно иностранного и русских слов, в скобках приведен либо лишь этимон иностранного слова со значением (напр., **Индикатор биохимический** (< лат. *indicator* – указатель), либо в курсиве без значения (напр., **Кадастр водный** – (< *kadastru...* + *водный*). В последнем случае значение этимона следует посмотреть выше по тексту. Наиболее часто встречающиеся словообразовательные элементы сложных слов даны как отдельные словарные статьи с соответствующими объяснениями. Читатель их найдет на своем месте по алфавиту, или же в составе отдельных заглавных слов, расположенных по алфавиту (напр., **Авто... (Ауто)...** (гр. *autos* – сам); **Автотрофы** (< *autos...* + гр. *trophē* – пища). Перевод некоторых терминов приводится по их смыслу. В таких случаях его смысл дается в скобке непосредственно после термина (напр., **Ландшафт** – нем. *Landshaft* (общий вид местности, пейзаж). В отдельных статьях после термина и его этимона курсивом сокращенно даны касающиеся направления отраслей. Например, *горн.* (горная промышленность), *металл.* (металлургическая промышленность). Толкования терминов и понятий приведены в нескольких вариантах в тех случаях, когда имеются широко признанные или явно различающиеся между собой логические нюансы в понимании того или другого термина и понятия.

В целях расширения экологического кругозора читателя в конце словаря под отдельными заголовками даны некоторые сведения о ведущих международных организациях по охране природы, список международных Конвенций и Соглашений в области охраны окружающей среды и Законы Республики Узбекистан по охране природы.

В словаре встречаются следующие условные сокращения: гр.– по гречески, лат. – по латински, англ. – по английски, фр. – по французски, нем. – по немецки, исп. – по испански, ит. – по итальянски, фин. – по фински, См. – смотрите, Ср. – сравните, напр., – например, к.-л.– какое(го)-либо, т.п. – тому подобие, др. – другие.

Lugʻatning tuzilishi haqida

Lugʻat rus va oʻzbek tillarida yozilgan boʻlib, undagi atama va tushunchalar oʻzlarining ruscha talqiniga koʻra alifbo tartibida joylashtirilgan. Unda qushlarning oʻzbekcha nomlari tarjimai T. Zohidovdan (1957), oʻsimliklar nomlarining tarjimai esa asosan S. Sahobiddinovdan (1953) olingan. Oʻlchov birliklari belgilari lugʻatda Oʻz DST 8.012:2005 standartiga moslab berilgan. Lugʻatda keltirilgan atama va tushunchalar bosh soʻzlar (sarlavhalar) shaklida berilgan boʻlib, qoramtir harflar bilan ajratilgan. Bosh soʻzdan keyin qavs ichida uning etimologiyasi (kelib chiqishi) xorij tilidagi soʻz (etimon) bilan ifodalangan. Etimon sodda soʻzdan iborat boʻlib, uni bir soʻz bilan tarjima qilish mumkin boʻlsa, u holda uning tarjimai toʻgʻridan - toʻgʻri keltirilgan. Masalan, **Bakteriyalar** (gr. bakteria – tayoqcha). Agar bosh soʻz murakkab boʻlib, bir necha etimondan iborat boʻlsa, unda har bir etimon alohida tarjima qilinib, bir - biriga ulanadi. Bu holda « < » belgisi „...dan kelib chiqqan“, „...asosida“ degan maʼnoni beradi. Masalan, **Fototrof bakteriyalar** (< gr. photo – yorugʻlik + trophe – ozuqa + bacteria – tayoqcha). Xorijiy va oʻzbek tillaridan olingan soʻzlardan iborat baʼzi murakkab sarlavhalarning mazmuni keltirilganda qavs ichida yo faqatgina xorijiy etymon va uning maʼnosi (mas., **Biokimyoviy indikator** (< lot. indicator – koʻrsatuvchi) yoki kursivda etimonning oʻzi va oʻzbekcha soʻz (mas., **Suv kadastr** (*suv + kadastru...*)) keltirilgan. Ikkinchi holatda etimonning maʼnosini matn boʻyicha oldinroqda qarashga toʻgʻri keladi. Lugʻatda koʻproq uchraydigan murakkab soʻzlarning soʻz hosil qiluvchi elementlari alohida lugʻat atamasi sifatida berilgan. Ularni oʻquvchi alfavit boʻyicha oʻz oʻrnida yoki alfavit boʻyicha joylashtirilgan murakkab bosh soʻzlar tarkibida topadi (mas., **Avto...** (**Auto...**) gr. autos – oʻzim; **Avtotroflar** < *autos...* + gr. trophe – ozuqa). Ayrim atamalarning tarjimai uning mazmuniga koʻra keltirilgan. Bu holda atamaning mazmuni atamadan bevosita keyin qavs ichida berilgan (mas., **Landshaft** – nem. Landshaft (joyning umumiy koʻrinishi, manzara). Baʼzi hollarda atama va uning etimonidan keyin qisqartirilgan holda kursiv bilan mazkur atamaning qaysi sohaga tegishli ekanligi koʻrsatilgan. Masalan, *togʻ - kon*. (konchilik sanoati), *metall*. (metallurgiya sanoati). Lugʻatdagi baʼzi atama va tushunchalar turlicha izohlangan boʻlib, bu ularning talqinida bir-biriga oʻxshash yoki oʻzaro mantiqan farqlanuvchi maʼno borligidan kelib chiqdi.

Oʻquvchining ekologik dunyoqarashini kengaytirish maqsadida lugʻatning oxirida tabiat muhofazasi bilan shugʻullanuvchi yetakchi Xalqaro tashkilotlar toʻgʻrisida baʼzi maʼlumotlar, Atrof muhit muhofazasiga doir Xalqaro Konvensiya va Bitimlar hamda tabiat muhofazasiga doir Oʻzbekiston Respublikasining Qonunlari roʻyxati keltirilgan.

Lugʻatda quyidagi shartli qisqartmalar uchraydi: gr. – grekcha, lot. – lotincha, ingl. – inglizcha, fr. – fransuzcha, nem. – nemischa, isp. – ispancha, it. – italyanacha, fin. – fin tilidan, Qar. – qarang, Taqqos. – taqqoslang, mas., – masalan, sh. oʻ. – shunga oʻxshashlar, boshq. – boshqalar, h.k.z. – hokazolar.

**Наиболее употребительные сокращенные знаки единиц измерения
Ko'proq uchraydigan o'lchov birliklarining qisqartirilgan belgilari**

Величина — Kattalik	Знак — Belgisi	Название — Nomi
Длина — Uzunlik	km cm mm µm nm	километр — kilometr сантиметр — santimetr миллиметр — millimetr микрометр — mikrometr нанометр — nanometr
Площадь — Maydon	ha km ² m ² dm ² cm ² mm ²	гектар — gektar километр в квадрате — kilometrning kvadrati метр в квадрате — metrning kvadrati дециметр в квадрате — detsimetrning kvadrati сантиметр в квадрате — santimetrning kvadrati миллиметр в квадрате — millimetrning kvadrati
Масса — Vazn	t kg kg/ha g mg mg/l	тонна — tonna килограмм — kilogramm килограмм на гектар — kilogramm taqsim gektarga грамм — gramm миллиграмм — milligramm миллиграмм на литр — milligramm taqsim litrga
Время — Vaqt	d h min s	сутки — sutka час — soʻt минут — minut секунд — sekund
Объём — Hajm	L m ³ dm ³ cm ³ mm ³	литр — litr кубический метр — metrning kubi кубический дециметр — detsimetrning kubi кубический сантиметр — santimetrning kubi кубический миллиметр — millimetrning kubi
Температура — Harorat	°C	Градус температуры по шкале Цельсия — Selsiy shkalasi bo'yica haroratning gradusi
Давление — Bosim	Pa	Паскаль — Paskal
Продуктивность — Mahsuldorlik	q/ha	центнер с гектара — sentner taqsim gektar
Степень акустического давления — Tovush bosimini darajasi	dB	децибел — detsibel

Ионизированное излучение — Ionlanuvchi nurlanish	Rd	рад — rad
Энергетическая освещенность (Излучение) — Energetik yoritilganlik (Nurlanganlik)	W/m ²	ватт/метр в квадрате — vatt taqsim metning kvadrati
Длина волн — To'liqin uzunligi	μm nm	микромметр — mikrometr наномметр — nanometr
Количества тепла (изотермический потенциал) — Issiqlik miqdori (izotermik potentsial)	K/cal cal cal/cm ² .s	Килокалория — Kilokaloriya калория — kaloriya калория/сантиметр в квадрате в секунду — kaloriya taqsim santimetrning kvadrati sekundiga

Русский алфавит

Аа	Кк	Хх
Бб	Лл	Цц
Вв	Мм	Чч
Гг	Нн	Шш
Дд	Оо	Щщ
Ее	Пп	Ъъ
Ёё	Рр	Ыы
Жж	Сс	Ьь
Зз	Тт	Ээ
Ии	Уу	Юю
Йй	Фф	Яя

Lotin alfaviti

Yozilishi	O'qilishi	Yozilishi	O'qilishi
Aa	А	Nn	Н
Bb	Б	Oo	О
Cc	Ц, к	Pp	П
Dd	Д	Qq	Қ
Ee	Э, е	Rr	Р
Ff	Ф	Ss	с, з

Gg	Г	Tt	т, ц
Hh	Х	Uu	у, в
Ii	И	Vv	в, ф
Jj	Й, ж	Ww	В
Kk	К	Xx	кс, кз
Ll	Л	Yy	и, ю
Mm	М	Zz	ц, з

А

A..., An (гр. a..., an... – начальная часть слова со значением отрицания) — приставка в иностранных словах (преимущественно греческих), выражающая отрицание или отсутствие к-л. качества или свойства (напр., *абиогенез*).

Абиогенез (< a... + гр. bios – жизнь + genesis – происхождение) — теория происхождения жизни на Земле путем постепенного усложнения неорганической природы и возникновения биополимеров (нуклеиновые белки и др.). В середине XX века осуществлен абиогенный синтез белковоподобных и других органических веществ, что подтверждает гипотезу А.

Абиотические факторы среды

(< a... + гр. bioticos – живой + лат. factor – делающий, производящий) — совокупность условий (факторов) неорганической среды, влияющих на жизнедеятельность организма. А.ф.с. разделяются на химические (атмосферный воздух с составом газовых примесей, вода, химический состав донных отложений, грунта и почвы) и физические (температура воздуха, воды, давление, ветры, радиационный фон и т.д.).

A..., An (гр. a..., an... – inkor etish ma'nosini beruvchi old qo'shimcha) — xorijiy so'zlar (asosan grek so'zlari) oldiga qo'yiladigan biror-bir sifat yoki xususiyatning yo'qligini bildiruvchi old qo'shimcha (mas., *abiogenez*).

Абиогенез (< a... + гр. bios – hayot + genesis – kelib chiqish) — Yerdа hayotning noorganik moddalar astasekin murakkablashborishi va biopolimerlar (nuklein oqsillari va boshq) hosil bo'lish yo'li bilan paydo bo'lganligi to'g'risidagi nazariya. XX asr o'rtalarida oqsil-simon va boshqa organik moddalarning abiogen yo'l bilan sintez qilinishi А. gipotezasini tasdiqlaydi.

Мuhitning abiotik omillari (< a...

+ гр. bioticos – tirik + lot. factor – ta'sir ko'rsatuvchi, keltirib chiqaruvchi) — organizmga ta'sir etuvchi jonsiz tabiat omillari, ular organizmning yashash sharoitini belgilaydilar. M.a.o. kimyoviy (atmosfera havosi va uning tarkibidagi gazlar aralashmasi, suv, suv osti yotqizlari va tuproqdagi kimyoviy birikmalar) va fizikaviy (havo va suvning harorati, bosimi, shamollar, radiatsiya va h.k.z.) omillar guruhlariga bo'linadi. Organizmlar

Организмы в историческом развитии приспособляются к А.ф.с. и в процессе жизнедеятельности сами их изменяют (напр., поддержание в атмосфере соотношения O_2 и CO_2 при дыхании и питании организмов). Распространение организмов в биосфере часто зависит от лимитирующих факторов абиотической среды (см. подробнее – Фактор).

Абиосфера (< *a...* + гр. *bioticos* – живой + *sphaira* – шар, среда) — слои литосферы, не испытывающие и ранее никогда не подвергавшиеся влиянию живых организмов или биогенных веществ.

Абиссаль (гр. *abyssos* – бездонный) — зона морского дна, соответствующая глубинам океанического ложа (3000-6000 м) с относительно малой подвижностью воды, постоянными температурой (1–2 °С), соленостью (около 35%), гидростатическим давлением (300-600 Па) и преобладанием илистых грунтов. В А. свет отсутствует.

Абиссальные отложения (< гр. *abyssos* – бездонный + *отложения*) — глубоководные морские и океанические отложения, состоящие главным образом из илов органического или минерального происхождения.

Абиссопелагиаль (< гр. *abyssos* – бездонный + *pelagos* – море) — придонный слой пелагиали, глубже 2500 м.

Аборигены (лат. *ab origine* – от начала) — 1) коренные обитатели определенной местности, исстари в ней живущие, но не обязательно первоначально эволюционировавшие в данной местности; 2) то же,

о'zlarining evolyutsion taraqqiyoti jarayonida bu omillarning ta'siriga moslashib oladi va ularga o'z ta'sirini o'tkazadi (mas., oziqlanish va nafas olish bilan atmosferadagi O_2 va CO_2 nisbatini saqlab turish). Organizmlarning biosferada tarqalish imkoniyatlari asosan abiotik muhitning cheklovchi omillariga bog'liq (qar. kengroq – *Omil*).

Абиосфера (< *a...* + гр. *bioticos* – tirik + *sphaira* – шар, muhit) — litosferaning hozirgi kunda ham, ilgarigi vaqtda ham hech qachon tirik organizmlar yoki biogen moddalar ta'sirida bo'lmagan qavati.

Абиссаль (гр. *abyssos* – tubsiz) — dengizning okean tubiga teng chuqurlikdagi (3000 – 6000 м), suv nisbatan kam harakatlanadigan, o'zgarimas harorat (1-2°С), sho'rlik (35% atrofida) va gidrostatik bosim (300 – 600 Па) ga ega bo'lgan loyqa bosgan balchiqli tubi. А. da mangu qorong'ulik hukm suradi.

Абиссальные отложения (< гр. *abyssos* – tubsiz + *yotqiziqalar*) — okean va dengizlarning chuqur tubida yotgan, tarkibi asosan organik yoki mineral kelib chiqishga ega bo'lgan balchiqdan iborat yotqiziqalar.

Абиссопелагиаль (< гр. *abyssos* – tubsiz + *pelagos* – dengiz) — pelagialning 2500 м dan chuqurroq bo'lgan, suv tubiga yaqin qatlami.

Аборигены (lot. *ab origine* – boshlanishidan) — 1) ma'lum bir joyning qadimiy tub yashovchilari. Ular o'zlarining kelib chiqishi va evolyutsion rivojlanishi jihatidan bu joy bilan bog'liq bo'lmaliklari

что *Автохтоны*.

Абсорбат — вещество, поглощаемое абсорбентами в процессе абсорбции (напр., различные газообразные загрязнители). См. — *Абсорбция*.

Абсорбент (< лат. absorbens — поглощающий) — вещество, поглощающее разных абсорбатов в процессе абсорбции. См. — *Абсорбат, Абсорбция*.

Абсорбер — аппарат, в котором в промышленном масштабе осуществляется *абсорбция* с целью насыщения жидкости газом, очистки газов от вредных примесей и разделения газовой или паровой смеси для выделения некоторых из них. А. представляет собой башню, в нижнюю часть которой подаётся газ, а в верхнюю — жидкость. Если процесс абсорбции протекает с выделением тепла, то в А. устанавливаются охлаждающие змеевики или трубки. А. работает на принцип привотока восходящего и нисходящего потока газа и жидкости. Его называют также и *скруббером*. См. — *Скруббер*.

Абсорбция (лат. absorptio — поглощение) — 1) способ очистки вредных газовых примесей с помощью жидкости. А. осуществляется в абсорберах. При этом загрязнённая газовая смесь движется снизу вверх сквозь слой жидкого абсорбента (поглотителя), стекающего навстречу газовому потоку. В качестве абсорбента для очистки газа от аммиака, хлористого водорода и фтористого водорода применяется вода и растворы щелочей, от цианистых соединений — раствор железного купороса, от

mumkin; 2) *Avtoxtonlarga* mos.

Absorbat — absorbsiya jarayonida absorbentlarda (yutuvchilarda) yutiluvchi moddalar (mas., turli gazzimon chiqindilar). Qar. — *Absorbsiya*.

Absorbent (< лат. absorbens — yutuvchi, shimib oluvchi) — absorbsiya jarayonida turli absorbatlarni yutib oluvchi modda. Qar. — *Absorbat, Absorbsiya*.

Absorber — sanoat ko'lamida *absorbsiya* qilish, ya'ni suyuqlikni gazga to'yintirish, gazlarni zararli aralashmalardan tozalash va gaz bilan bug' aralashmasini bir-biridan ajratish maqsadida foydalaniladigan uskuna. U minora ko'rinishida bo'lib, ostidan gaz, tepasidan esa suyuqlik yuboriladi. Agar absorbsiya jarayonida issiqlik ajralib chiqadigan bo'lsa, unda А. ichiga sovituvchi burama trubka (zmeevik) o'matiladi. А. yuqoridan va pastdan bir-biriga qarama-qarshi keladigan gaz va suyuqlik oqimining to'qnashishi prinsipida ishlaydi. Uni *skrubber* deb ham yurgiziladi. Qar. — *Skрубber*.

Absorbsiya (lot. absorptio — yutilish, shimilish) — 1) suyuqliklar yordamida zararli gazlar aralashmasini tozalash usuli. А. absorberlarda amalga oshiriladi. Bunda zararli gazlar aralashmasi pastdan yuqoriga, absorbent (yutuvchi suyuqlik) esa unga qarshi yuqoridan pastga yo'naltiriladi. Gazzimon aralashmalarni ammiak, vodorod xloridi va florididan tozalashda absorbent sifatida suvdan va ishqorli eritmalardan, tsianli birikmalardan tozalashda temir kuporosi eritmasidan, tashlama «dum» nitroz

отходящих «хвостовых» нитрозных газов – раствор сульфат аммония, от ароматических углеводов – вязкие масла и т.п.; 2) поглощение света, радиоволн и звука через вещество. См. – *Очистка вредных выбросов.*

Авто..., ауто... (< гр. *autos* – сам) — часть сложных слов, соответствующая по значению, основе «само...» или словам «свой», «собственный», «автоматический» (напр., авторегуляция).

Автогенез (< *autos...* + гр. *genesis* – происхождение) — общее название идеалистических концепций, которые рассматривают эволюцию органического мира как процесс не зависящий от воздействия факторов внешней среды, направляемый и регулируемый некими внутренними нематериальными факторами. Ср. – *Эктогенез.*

Авторегуляция (в природе)

(< *autos...* + лат. *regulo* – направляю, упорядочиваю) — взаимодействие в природной системе, основанное на прямых и обратных функциональных связях, ведущее к динамическому равновесию всей системы (напр., авторегуляция численности организмов того или другого вида).

Автотомия, аутономия (< *autos...* + гр. *tome* – отсечение) — способность некоторых животных отбрасывать части своего тела (напр., отбрасывая хвост, ящерицы тем самым освобождаются от преследования врагов). А. связана со способностью последующего восстановления (регенерации) утраченной части тела.

gazlaridan tozalashda ammoniy sulfati eritmasidan, aromatik uglevododrodlardan tozalashda quyushoq moylardan foydalaniladi va h.k.z.; 2) yorug'lik, radioto'liqlar va tovushning biror moddaga yutilishi. Qar. – *Zararli tashlamalarni tozalash.*

Avto..., auto... (< гр. *autos* – o'zim) — murakkab so'zning old qismi bo'lib, mazmun jihatdan «o'z...» dan olinib, «o'zi», «o'zinniki», «o'z-o'zidan» so'zlariga mos keladi (mas., avtoregulyatsiya).

Avtogenез (< *autos...* + гр. *genesis* – kelib chiqish) — idealistik qarashlarning umumiy nomi bo'lib, ularga ko'ra organik dunyoning evolyutsiyasi jarayoni tashqi muhit omillarining ta'siriga bog'liq bo'lmay, balkim qandaydir ichki nomoddiy omillar orqali boshqariladi va tartibga solib turiladi. Taqqos. – *Ektogenез.*

Avtoregulyatsiya (tabiatda)

(< *autos...* + lot. *regulo* – yo'naltiraman, tartibga solaman) — tabiatda o'z-o'zini tartibga solib turish. Tabiatdagi barcha ekotizimlar doimiy o'zaro ta'sirda bo'lganligidan ularda dinamik muvozanat saqlanadi (mas., u yoki bu turdagi organizmlar sonining avtoregulyatsiyasi).

Avtotomiya, autotomiya (< *autos...* + гр. *tome* – uzib tashlash) — ba'zi hayvonlar o'z tanasining bir qismini uzib tashlash hodisasi (mas., kaltakesaklar zarur holda o'z dumlarini uzib tashlab, dushman changalidan qutilib ketadilar). А. hodisasi uzib tashlangan tana qismining keyinchalik qayta tiklanishi bilan bog'liq.

Автотропизм (< *autos...* + гр. *tropos* –направление) — способность полегших органов растений распрямляться после того, как внешней фактор, вызвавший изгиб, перестает действовать (напр., поднятия полегших злаков).

Автотрофы (< *autos...*+ гр. *trophe* – пища, питание) — организмы, синтезирующие из неорганических соединений органические вещества с использованием энергии Солнца. К А. относятся все фотосинтезирующие организмы (наземные и водные зеленые растения, водоросли, фототрофные бактерии и др.). Автотрофными организмами в год синтезируются до 190 млрд т органических веществ, из которых, примерно 10 млрд т израсходуется гетеротрофными организмами в качестве пищи.

Автохория (< *autos ...* + гр. *choreo* – продвигаюсь, распространяюсь) — распространение семян растений без содействия внешних факторов. А. осуществляется в двух формах: 1) самопроизвольным опаданием спелых семян и плодов под собственной тяжестью (*барохория*); 2) разбрасыванием семян из внезапно вскрывшихся спелых плодов, например, из плодов фасоли (*механохория*).

Автохтоны (< *autos...*+ гр. *chthon* – земля) — аборигенные организмы, возникшие и первоначально эволюционировавшие в данном месте.

Агломерация городская (< лат. *agglomerare* – присоединять, накапливать) — пространственно и функционально единая группировка поселений городского типа, составляющая

Avtotropizm (< *autos...* + гр. *tropos* – yo'nalish) — tashqi omil ta'sirida yerga yotib qolgan o'simlik organlarining bu omil ta'siri to'xtagach yana to'g'rilanishi (mas., yotib qolgan boshqililarning ko'tarilishi).

Avtotroflar (< *autos...*+ гр. *trophe* – ozuqa, oziqlanish) — Quyosh energiyasidan foydalanib noorganik birikmalardan organik moddalar hosil qiluvchi organizmlar. А. larga fotosintez jarayoni kechadigan barcha organizmlar (quruqlik va suvdagi yashil o'simliklar, yashil suvo'tlari, fototrof bakteriyalar va boshq.) kiradi. Yer yuzidagi (sh.j. okean va dengizlardagi) А. organizmlar yiliga 190 mlrd t organik moddalar to'playdilar, shundan taxminan 10 mlrd tonnasi geterotrof organizmlar tomonidan ozuqa sifatida qabul qilinadi.

Avtoxoriya (< *autos...* + гр. *choreo* – siljiyman, tarqalaman) — o'simlik urug'lari va mevalarining tashqi muhit omillari yordamisiz tarqalishi. А. ikki xil shaklda bo'ladi: 1) pishib yetilgan urug' va mevalarning o'z og'irligi bilan uzilib tushishi (*baroxoriya*); 2) pishib, qurib, to'satdan ochilib ketuvchi mevalardan, masalan, loviya mevalaridan, urug'larning sochilib ketishi (*mexanoxoriya*).

Avtohtonlar (< *autos...* + гр. *chthon* – yer) – kelib chiqishi va evolyutsion rivojlanishi jihatidan ma'lum joy bilan bog'liq organizmlar.

Shahar aglomeratsiyasi (< lot. *agglomerare* – qo'shish, yig'ish) — umumiy ijtimoiy – iqtisodiy va ekologik tizimni tashkil qiluvchi yagona maydonni egallagan va funksional jihatdan o'zaro

общую социально-экономическую и экологическую систему.

Агро... (< гр. *agros* – поле) — часть сложных слов, по значению указывающая на изменённые человеком площади земель посевом (посадкой) разных культур.

Агробιογεοοενοζ (< *agros...* + гр. *bios* – жизнь + *ge* – Земля + *koinos* – общий) — неустойчивая экосистема с искусственно созданным сообществом, дающим сельскохозяйственную продукцию. А. способен длительно существовать только с постоянной поддержкой человека.

Агрoлeсoмeлиoрaция (< *agros...* + лат. *melioratio* – улучшение) — система лесохозяйственных мероприятий, направленных на улучшение степного климата, ликвидацию засухи, защиту почвы от эрозии. А. исходит из свойств леса смягчать климат, конденсировать водяные пары воздуха, задерживать почвенную влагу. А. включает посадку полезащитных лесных полос, облесение водоразделов, смываемых склонов, берегов рек и песков, посадку деревьев вдоль оросительных каналов, вокруг водохранилищ, травосеяние в степях и пустыни. Имеет особое средозащитное значение для засушливых районов, в частности, для территории Средней Азии.

Агрoцeнoз (< *agros...* + гр. *coinos* – общий) — созданное для получения сельскохозяйственной продукции и регулярно поддерживаемое человеком биотическое сообщество, обладающее малой

bog'langan shahar tipidagi aholi punktlari guruhi.

Агро... (< гр. *agros* – dala) — murakkab so'zning old qismi bo'lib, mazmuniga ko'ra inson tomonidan turli ekinlarni ekish (o'tqazish) bilan o'zgartirib yuborilgan yer maydonini anglatadi.

Агробιογεοοενοζ (< *agros...* + гр. *bios* – hayot + *ge* – Yer + *koinos* – umumiy) — qishloq xo'jalik mahsulotlari olish maqsadida yaratilgan sun'iy ekotizim bo'lib, u ekologik jihatdan chidamsiz bo'ladi va faqatgina insonning aralashuvi bilan o'zini uzoq vaqt saqlab qola olishi mumkin.

Агрoлeсoмeлиoрaтсия (< *agros...* + lot. *melioratio* – yaxshilash) — cho'l iqlimini yaxshilash, qurg'oqchilikning oldini olish va tuproqni eroziyadan asrashga qaratilgan o'rmon-xo'jalik tadbirlari tizimi. А. daraxtlarning iqlimni yumshatish, havoning namligini mo'tadillashtirish va tuproq namligini saqlash xususiyatlariga asoslangan. Unga ixota daraxtzorlari barpo qilish, suv ayirgichlari, oson yuviladigan qiyalik yonbag'irlar, daryo qirg'oqlari va qumliklarda, kanallar bo'yi va suv omborlari atrofida daraxtzorlar barpo qilish, cho'l va sahrolarga o'tchil o'simliklarni ekib o'stirish tadbirlari kiradi. Qurg'oqchil rayonlar, sh.j. O'rta Osiyo hududi uchun alohida muhitni himoya qilish ahamiyatiga ega.

Агрoтсeнoз (< *agros...* + гр. *koinos* – umumiy) — qishloq xo'jalik mahsulotlari olish maqsadida inson tomonidan yaratilgan va doimiy parvarishlab turiladigan, ekologik jihatdan ancha beqaror, ammo yuqori

экологической надежностью, но высокой урожайностью избранных видов растений или животных.

Агрофитоценоз (< *agros...* + гр. *phyton* – растение + *koinos* – общий) — растительное сообщество, создаваемое человеком путем посева или посадки избранных видов. В состав А. входят все растения данной местности, как культурные, так и сорные.

Агроэкология (< *agros...* + гр. *oikos* – дом, родина + *logos* – учение) — наука, изучающая экологические особенности сельскохозяйственных культур и почвенных условий сельхозугодий.

Адаптация (позднелат. *adaptatio* – приспособление) — 1) эволюционно возникшее приспособление организмов к условиям среды, обеспечивающее устойчивость к воздействиям абиотических факторов среды и успех в конкуренции с другими организмами. В процессе адаптации происходят физиологическое, морфологическое и поведенческое приспособления организмов; 2) нередко применяемый в горном производстве термин, который означает приспособление всех элементов производства к условиям разработки того или иного месторождения (напр., выбор оптимальной технологии, приспособление машин и механизмов, обеспечение безопасности труда для производственного персонала и т.п.); 3) термин в языковедении принимается как облегчающий для изучения иностранного текста начинающим изучать данный язык (напр., адаптация между двух отрывков).

biologik mahsuldorlikka ega bo'lgan biotik birlashmalar (o'simlik va hayvonlar) majmuasi.

Агрофитотсеноз (< *agros...* + гр. *phyton* – o'simlik + *koinos* – umumiy) — inson tomonidan ma'lum turlarni urug'idan yoki qalamchadan o'stirish bilan yaratiladigan o'simliklar qoplami. А. tarkibiga o'sha joyda o'sayotgan barcha madaniy va yovvoyi o'simliklar kiradi.

Агроэкология (< *agros...* + гр. *oikos* – uy, vatan + *logos* – fan) — ekinzorlar va ularda o'stirilayotgan qishloq xo'jalik ekinlarining ekologik xususiyatlarini o'rganuvchi fan sohasi.

Адаптатсия (keyingi lot. *adaptatio* – moslashish) — 1) organizmlarning evolyutsion rivojlanish jarayoni davomida ularning abiotik muhit omillariga moslashishi va boshqa organizmlar bilan erkin raqobat qilaolish xususiyati. Ushbu jarayonda ularda muhit omillari ta'siriga nisbatan fiziologik, morfologik va xulq-atvor moslashishlari paydo bo'ladi; 2) konchilik sanoati ishlab chiqarishida qo'llaniladigan atama bo'lib, bunda u yoki bu kondan foydalanish ishini tashkil qilishda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha omillar o'sha joyning mahalliy sharoitiga moslanadi (mas., ishlab chiqarishga maqbul texnologiyani qabul qilish, mashina va mexanizmlarni tanlash va moslashtirish, ishchilarning mehnat xavfsizligini ta'minlash va boshq.). 3) atama tilshunoslikda xorijiy tildagi matnни o'rganishni yangi o'rganayotganlar uchun osonlashtiruvchi ma'nosida qabul qilinadi (mas., ikkita parchaning o'zaro adaptatsiyasi).

Адвентивность (< лат. *adventicius* – пришлый, чуждый) — приход (иммиграция) вида из другого сообщества или области распространения. Адвентивными для Узбекистана являются гамбузия, ондатра, нутрия, бамбук, азланта, калифорнийский тополь, подсолнух, соя, арбуз и многие другие виды животных и растений.

Адсорбер — аппарат, в котором в промышленном масштабе осуществляется *адсорбция*, т.е. поглощение газов, паров или растворенных веществ пористыми твердыми поглотителями с целью очистки газов, жидкостей или растворов от вредных примесей, извлечения из смеси газов, жидкостей или из растворов ценных составных частей. А. представляет собой башню или реакционный сосуд с мешалкой. Смесь газообразных или жидких веществ и растворов пропускаются через слои адсорбентов. По окончании адсорбции, когда адсорбент (чаще активированный уголь, силикогель и др.) насыщен поглощенным веществом, производят *десорбцию*, т.е. выделяют этого вещества путем нагрева, вымыванием или отгонкой водяным паром и адсорбент снова пускает в эксплуатацию.

Адсорбция (< лат. *ad* – на, у, при + *sorbene* – поглощать) — поглощение вещества из раствора или газа поверхностью твердого вещества или жидкости. Один из методов очистки газообразных и жидких веществ от загрязняющих компонентов или извлечения из их состава избранных компонентов,

Адвентивлик (< lot. *adventicius* – *kelgindi, begona*) — turning ma'lum bir joyga boshqa joylardan yoki guruhlardan kelib qolishi. O'zbekiston sharoitida adventiv turlar qatoriga hayvonlardan gambuziya, ondatra, nutriya va boshqalarni, o'simliklardan bambuk, aelanta, kungaboqar, soya, tarvuz, kaliforniya teragi va boshqalarni kiritish mumkin.

Adsorber — sanoat ko'lamida *adsorbsiya* qilish, ya'ni g'ovak qattiq yutgichlar yordamida gazlar, suyuqliklar va eritmalarini zararli aralashmalardan tozalash yoki ular tarkibidagi qimmatli mahsulotlarni ajratib olish maqsadida foydalaniladigan uskuna. U minorasimon yoki ichida aralashtirgichi bo'lgan reaksiya bajariladigan idish ko'rinishida bo'lib, uning ichida gazsimon, suyuq aralashmalar va eritmalar adsorbent orqali o'tkaziladi. Bunda ular tarkibidagi zararli aralashmalar (yoki qimmatli mahsulotlar) adsorber sirtida to'planib qoladi. Adsorbent (aktivlashgan ko'mir, silikogel va boshq.) ning sirti to'lib qolgach, adsorbsiya to'xtatiladi va adsorbent *desorbsiya* qilinadi. Bunda qizdirish, yuvish yoki bug' bilan haydash orqali uning sirtidagi zararli modda (yoki qimmatli mahsulotlar) ajratib olinadi va u yana qayta ishga solinadi.

Adsorbsiya (< lot. *ad* – ga, da + *sorbene* – yuttirish) — eritma yoki gaz tarkibidagi moddalarning qattiq yoki suyuq moddalar sirtiga yuttirilishi. Ba'zi qattiq jismlarning gazsimon va suyuq moddalar tarkibidagi ifloslovchi componentlarni yoki eritmalar tarkibidagi qimmatli mahsulotlarni ajratib olish

основанный на физическое свойство некоторых твердых тел с ультрамикроскопической структурой селективно извлекать и концентрировать на своей поверхности эти компоненты из адсорбируемой смеси. А. осуществляется в адсорберах. При этом загрязненная смесь проходит через пористого адсорбента, поверхность которого создает силовое поле. В качестве адсорбента применяются активированный глинозем (силикогель), активированный оксид алюминия (алюмогель), синтетические цеолиты (молекулярные сита) и иониты. Самое широкое применение среди адсорбентов имеет активный уголь для очистки газов от органических паров, удаления неприятных запахов и т.д. См. — *Очистка вредных выбросов.*

Азональность (< a...+ гр. zone — пояс) — 1) нарушение поясности. А. возникает обычно под влиянием антропогенных факторов. Например, присутствие хвойных пород деревьев высокие широт в городах Средней Азии; 2) локальное взаимодействие средообразующих компонентов.

Акарициды (< гр. akari — клещ + лат. caedere — убивать) — химические средства, применяемые в борьбе с клещами (напр., метафос, метилнитрофос и т.п.).

Акватория (< лат. aqua — вода + terra — земля) — водное пространство, ограниченное естественными и другими условными границами. А. включает водную толщу до дна водоема, подстилающие слои литосферы и прилегающего к водной глади

va o'z sirtida to'plash xususiyatiga asoslangan tozalash (ajratib olish) usuli bo'lib, u maxsus qurilmalarda — adsorberlarda amalga oshiriladi. Bunda ifloslangan gazsimon va suyuq holdagi moddalar yoki tarkibida qimmatli mahsulot saqlagan eritma qattiq g'ovak jismlar (adsorbentlar) orqali o'tkazilganda adsorbentlar sirtida kuchlanish maydoni hosil bo'lib, ulardagi iflosliklarni (yoki kerakli mahsulotni) o'ziga tortib oladi. Adsorbent sifatida aktivlashgan glinozyom (silikogel), aktivlashgan alyuminiy oksidi (alyumogel), sintetik seolitlar (molekulyar elaklar) va ionitlardan foydalaniladi. Gazlarni organik bug'lardan, qo'lansa hidlardan va boshqalardan tozalash uchun ayniqsa aktivlashtirilgan ko'mir ko'proq ishlatiladi. Qar. — *Zararli tashlamalarni tozalash.*

Азоналлик (< a...+ гр. zone — mintaqa) — 1) mintaqaviylikning buzulishi. А. odatda inson omili ta'sirida vujudga keladi. Masalan, O'rta Osiyo shaharlarida shimoliy mintaqalarda o'suvchi ninabargli daraxtlarning o'stirilishi.; 2) muhitni tashkil qiluvchi komponentlarning o'zaro lokal ta'sirida bo'lishi.

Акарициды (< гр. akari — kana + lot. caedere — o'ldirmoq) — kanalarga qarshi kurashda qo'llaniladigan kimyoviy vositalar (mas., метафос, метилнитрофос va sh.o.).

Акватория (< lot. aqua — сув + terra — yer) — atrofi tabiiy, sun'iy yoki boshqa shartli chegaralar bilan o'rab olingan suvlik maydon. А. o'z ichiga suvning tubigacha bo'lgan suv qatlamlarini, suv havzasi litosferasini va suv sathiga tegib turgan havo

воздушное пространство.

Акклиматизация (< лат. ad – к + гр. klima – наклон (обозначающий смысл *климат*, древние греки связывали климатические различия с наклоном солнечных лучей к земной поверхности) — 1) комплекс мероприятий по вселению вида в новые места обитания, проводимые в целях обогащения сообществ полезными для человека организмами; 2) приспособление организма к изменившимся условиям существования, в которые он попал с искусственным его переселением.

Аккумуляция (лат. *akkumulatio* – накопление, соби́рание) — накопление чего-то. Например, аккумуляция загрязнителей организмами — накопление в организмах химических веществ, находящихся в среде его обитания в меньшей концентрации. Так, по сравнению с морской водой в теле водных животных содержится в тысячу раз больше P, Si, и Zn, в сто раз — S, Fe и Cu, в десять раз — K, As, B и F.

Активный ил (< лат. *activus* – действенный) — совокупность гетеротрофных микроорганизмов, мелких беспозвоночных и твердого субстрата (биофильтра). А.и. применяется в биологической очистке сточных вод и функционирует в аэробных условиях. См. также – *Аэрофильтр*.

Аларизм экологический (< фр. *alarime* – тревога, беспокойство + *экологический*) — течение в западной науке, утверждающее катастрофичность последствий воздействия человека на природу и

bo'shlig`ini oladi.

Миазмология (< гр. miasma – зловина, скверна + logos – учение) — дисциплина, изучающая особенности загрязнения окружающей

тор доирага ixtisoslashgan o‘simlikxo‘r turlar yordamida kurashish. B. kurash usuliga zararkunandalarda parazitlik qiladigan va ularni boshqa usullar bilan zararlaydigan turlar keng jalb qilinadi;

genetik (< гр. genes – tug‘iladigan) – zararli turlarning erkaklarini bepusht qilish va ular yordamida fertile organizmlarni siqib chiqarishga asoslangan tadbirlar guruhi;

integral (< lot. integration – birlashtirish) – zararli organizmlarga qarshi bir necha usullarni bir vaqtda qo‘llash yoki ularni birin-ketin qo‘llash. Bu usulning nazariy asosi shundaki, bunda bir usul (agent) bilan zararli turning populyatsiyasini zaiflashtirib, boshqa usul (agent) bilan (ko‘pincha kimyoviy zaharlarni qo‘llash bilan) uni qirish va o‘lmay qolgan chidamlilarini biologik usul bilan yo‘qotiladi;

mikrobiologik (< гр. micros – kichkina + biotikos – tirik) – zararkunandalarga qarshi patogen mikroorganizmlar yordamida kurashish;

fizik (< гр. physis – tabiat) – zararli turlarni ultrabinafsha nurlari (yoki oddiy tungi chiroq) yordamida tuzoqqa (ko‘pincha suv solingan idishga) jalb qilish bilan yo‘qotish, yoki ularni ultratovush, vibratsiya va boshqa sun‘iy yaratiladigan fizikaviy omillar yordamida qirib tashlash;

kimyoviy – zararkunandalarga qarshi kurashda kimyoviy zaharlarni (insektitsid, pestitsid va gerbitsidlarni) qo‘llash.

Miazmologiya (< гр. miasma – yomon, iflos + logos – fan) — insonni o‘rab turgan tabiiy muhitning ifloslanish xususiyatlarini o‘rganuvchi fan

человека природной среды.

Миграция животных — закономерные перемещения животных между существенно различаемыми средами обитания, пространственно отстоящими друг от друга. М.ж. вызываются изменением экологических факторов среды или изменением требований животного к этим факторам на разных стадиях развития. М.ж. могут быть периодическими (сезонными) или непериодическими под воздействием необычного ухудшения условий среды (засухи, пожары, наводнения и т.д.), при котором М. часто заканчиваются массовой гибелью животных. Относительно миграции водных животных возможно различать следующие её виды:

миграция анадромная — миграция водных животных для размножения из морей в реки (некоторые осетровые и лососовые рыбы);

миграция катадромная — миграция водных животных для размножения из рек в море (речные угри).

Микробиоценоз (< гр. mikros — малый + bioticos — живой + koinos — общий) — сообщество микроорганизмов, рассматриваемое в биогеоценологии как особый средообразующий компонент (редуценты).

Микроклимат (< гр. mikros — малый + klima...) — 1) климат небольшой территории (опушка леса, поймы рек, берега озера, норы, кроны дерева и т.п.) или искусственно образованный климат (в рабочих, жилых и иных помещениях); 2) климат приземного слоя атмосферы.

tarmog'i.

Hayvonlar ko'chishi — bir-biridan uzoqda joylashgan, tabiiy sharoiti o'zaro keskin farq qiluvchi yashash joylari orasida hayvonlarning ma'lum qonuniyatlar asosida ko'chib yurishi. H.k. muhit ekologik omillarining o'zgarishidan yoki hayvonlar rivojlanishning turli davrlarida u yoki bu omilga nisbatan talabi o'zgarishidan kelib chiqadi. H.k. davriy (mavsumiy) yoki muhit sharoitining yomonlashuvi (qurg'oqchilik, yong'in chiqishi, suv bosishi va h.k.z.) natijasida nodavriy bo'lishi mumkin. Nodavriy ko'chishlar odatda ommaviy halokat bilan tugaydi. Suv hayvonlarining ko'chishining qo'yidagi turlari ma'lum:

anadrom ko'chish — dengizda yashovchi hayvonlarning ko'payish davrida daryolarga chiqishi (ba'zi osetrasimonlar va losos baliqlar);

katadrom ko'chish — daryoda yashovchi hayvonlarning ko'payish uchun dengizga ko'chishi (daryo ilonbalig'i).

Микробиотсеноз (< гр. mikros — kichkina + bioticos — tirik + koinos — umumiy) — biogeotsenologiyada muhitni belgilovchi alohida komponent sifatida hisoblanadigan mikroorganizmlar majmui (redutsentlar).

Микроклим (< гр. mikros — kichkina + klima...) — 1) kichkina maydonning (o'rmon chekkasi, daryo odogi, ko'llar bo'yi, inlar, daraxt shox-shabbalari) iqlimi yoki sun'iy ravishda (ish xonalari, yashash va boshqa binolarda) yaratilgan iqlim; 2) atmosferaning yer sirtiga tegib turgan qavatining iqlimi.

Микроконсументы (< гр. mikros – малый + лат. konsumo – потребляю) — гетеротрофные организмы (в основном бактерии и грибы), разрушающие мертвые тела и питающиеся продуктами их разложения. М. разрушая мертвые тела, высвобождают минеральные питательные вещества, пригодные для использования автотрофными организмами. Практически то же, что *редуценты*, но в другой классификационной системе.

Микрокосм (< гр. mikros – малый + kosmos – мир) — 1) экосистема, крайне ограниченная по площади (объему) микроэкосистема. Широко используется для моделирования более крупных экосистем; 2) образное выражение «миниатюрный мир» (мир отдельной песчинки, капли).

Микроорганизмы (< гр. mikros – малый + лат. organismus (живое тело) — организмы, величиной 50-500 μm .

Микропопуляция (< гр. mikros – малый + фр. population – население) — 1) совокупность особей вида, обитающих в пределах границ одного биогеоценоза; 2) нечетко определенный термин для обозначения части популяции. М. не способна к длительному самоподдержанию и потому лишь вместе с другими М. составляют устойчивую популяцию.

Микрофауна (< гр. mikros – малый + lot. Fauna (животное население) — сообщество животных, размером мельче 500 μm .

Микрофлора (< гр. mikros – малый + лат. Flora (растительное сообщество) — 1) флора микро-

Mikrokonsumentlar (< гр. mikros – kichkina + lot. konsumo – iste'mol qilaman) — o'lik tanalarni parchalab, undan hosil bo'lgan mahsulotlar bilan oziqlanuvchi geterotrof organizmlar (asosan bakteriyalar va zamburug'lar). M. jasadlarni parchalab, ulardagi organik moddalarni avtotrof organizmlar oziqlanishi uchun zarur bo'lgan mineral moddalarga aylantiradilar. M. amalda *redutsentlar* ning o'zi, faqat ularning boshqa klassifikatsion tizimda aytilishi.

Mikrokosm (< гр. mikros – kichkina + kosmos – dunyo) — 1) ekotizimning maydon jihatidan cheklangan kichkina bir mikroekotizimi. Yirik ekotizimlar modelini yaratishda keng foydalaniladi; 2) ta'rifni keltirib aytganda «kichik bir dunyo» (bir dona qum zarrasining dunyosi, bir tomchi suvning dunyosi).

Mikroorganizmlar (< гр. mikros – kichkina + lot. organismus (tirik jon) — kattaligi 50-500 μm bo'lgan organizmlar.

Mikropopulyatsiya (< гр. mikros – kichkina + fr. population – aholi) — 1) bitta biogeotsenoz doirasida yashovchi tur individlarining majmui; 2) populyatsiyaning bir qismini ifodalovchi uncha aniq bo'lmagan atama. M. mustaqil holda uzoq muddat yashay olmaydi va shuning uchun ham u barqaror populyatsiyani faqatgina boshqa M. lar bilan birga hosil qilaoladi, xolos.

Mikrofauna (< гр. mikros – kichkina + lot. Fauna (hayvonot olami) — kattaligi 500 μm . dan kichik bo'lgan hayvonlar majmui.

Mikroflora (< гр. mikros – kichkina + lot. Flora (o'simliklar majmuasi) — 1) mikroorganizmlar florasining bir-

организмов в сообществе (напр., в биогеоценозе, кишечнике и т.п.); 2) бактерии, некоторые грибы и водоросли.

Микроэволюция (< гр. mikros – малый + лат. evolutio – развёртывание) — совокупность эволюционных процессов, протекающих в популяциях вида и приводящих к изменениям генофондов этих популяций и образованию новых видов. Термин «М.» введен русским генетиком Николаем Владимирович Тимофеевым-Ресовским (1900-1981) в 1938 г.

Микроэлементы (< гр. mikros – малый + лат. elementum – первоначальное вещество) — химические элементы, необходимые организмам в ничтожных количествах, обеспечивающие нормальное развитие организма (животных) или служащие активатором биохимических процессов в организме (растений). К М. относятся: В, F, P, V, Cr, Mn, Co, Ni, Cu, Zn, As, Se, Br, Mo, Au, Ra, U, Те и др.

Миксобактерии (< гр. myxa – слиз + bakteria – палочка) — грамотрицательные аэробные бактерии, вегетативные клетки которых отличаются гибкостью и способностью к скользящим движениям. М. распространены в почве, в пресноводном и морском иле, а также в иле биопрудов водоочистных сооружений.

Минерализация — 1) процесс распада органических соединений до углекислоты, воды и простых солей, происходящий с участием или без участия редуцентов;

lashmasi (mas., biogeotsenozdagi, ichakdagi va h.k.z.); 2) bakteriyalar, ba'zi zamburug'lar va suvo'tlari.

Микроэволюция (< гр. mikros – kichkina + lot. evolutio – rivojlanish) — tur populyatsiyalari ichida sodir bo'ladigan va bu populyatsiyalarning genofondini o'zgartirib, yangi turlar paydo qiladigan evolyutsion jarayonlarning majmuasi. «М.» atamasini fanga birinchi marta 1938-y. rus genetigi Nikolay Vladimirovich Timofeev – Resovskiy (1900-1981) kiritdi.

Микроэлементлар (< гр. mikros – kichkina + lot. elementum – boshlang'ich modda) — organizmlar uchun juda kam miqdorda zarur bo'lgan organizmlarning normal rivojlanishini ta'minlovchi (hayvonlar uchun) yoki organizmdagi biokimyoviy jarayonlarni faollashtiruvchi (o'simliklar uchun) kimyoviy elementlar. B, F, P, V, Cr, Mn, Co, Ni, Cu, Zn, As, Se, Br, Mo, Au, Ra, U, Te va boshqalar kiradi.

Миксобактериалар (< гр. myxa – shilimsiq + bakteria tayoqcha) — juda silliq aerob bakteriyalar bo'lib, ular vegetativ to'qimalarining elastikligi va sirg'anib harakatlanishi bilan xarakterlanadi. М. tuproqda, chuchuk suv havzalari va dengiz tagidagi loyda hamda suv tozalash inshootlari bioprudlarining ostidagi loyda yashaydilar.

Минераллашув — 1) redutsentlarning ishtirokida yoki ularning ishtirokisiz organik birikmalarning karbonat angidrid, suv va oddiy tuzlargacha parchalanish jarayoni; 2) suvdagi tuzlarning

2) концентрация солей в водах.

Мониторинг (< лат. monitor – предупреждающий) — слежение за какими-то объектами или явлениями. В наиболее полном виде – многоцелевая информационная система, основными задачами которой является наблюдение, оценки и прогноз состояния природной среды с целью предупреждения об ожидаемых критических ситуациях, опасных для живых организмов в целом. Термин впервые введен в науку на научном Совете ООН в 1971 г. М. по своему характеру делится на следующие виды:

мониторинг авиационный (*monitor... + фр. aviation* (< лат. avis – птица) – мониторинг, осуществляемый с самолетов;

мониторинг биологический (*monitor... + гр. biotikos – живой*) – 1) слежение за биологическими объектами (наличием видов, их состоянием); 2) мониторинг с помощью биоиндикаторов;

мониторинг глобальный (*monitor... + фр. global – всеобщий*) – слежение за общемировыми процессами и явлениями, включая антропогенное воздействие на биосферу в целом;

мониторинг дистанционный (*monitor... + лат. distantia – расстояние*) – совокупность авиационного и космического мониторинга. В это понятие включают слежение за средой с помощью приборов, установленных в труднодоступных местах Земли (в горах, на Севере). Показания этих приборов передаются в центры наблюдения с

концентрацией.

Monitoring (< lot. monitor – ogohlantiruvchi) — biror obyektни yoki hodisani kuzatish. To'liq ma'noda u ko'pqirrali axborot tizimi bo'lib, uning asosiy vazifalariga tabiiy muhit holatini kuzatib borish, ma'lumotlar to'plash, o'zgarishlarni baholash va bashorat qilish asosida tirik organizmlar uchun xavfli holatlar paydo bo'lishining oldini olish ishlari kiradi. Atama fanga ilk bor 1971-y. BMT ning ilmiy Kengashi tomonidan kiritildi. M. o'zining o'tkazilish xarakteriga ko'ra qo'yidagi turlarga bo'linadi:

aviatsion monitoring (monitor... + fr. aviation (< lot. avis – qush) – samo:otlar yordamida o'tkaziladigan monitoring;

biologik monitoring (monitor... + gr. biotikos – tirik) – 1) biologik obyektlarni (turlarning mavjudligi va ularning holatini) kuzatib borish; 2) bioindikatorlar yordamida o'tkaziladigan monitoring;

global monitoring (monitor... + fr. global – umumiy) – butundunyo miqyosidagi jarayon va hodisalarni, biosferaga inson tomonidan o'tkazilayotgan antropogen ta'sirni kuzatish;

masofali monitoring (monitor... + lot. distantia – masofa) – aviatsion va kosmik kuzatuvlarning majmui. Buning ma'nosi shuki, bunday kuzatuvlar Yerning inson qadami etishi qiyin bo'lgan joylarida (Shimolda va baland tog'larda) o'rnatiladigan maxsus asboblarning ma'lumotlari markazga uzoq masofali axborot uzatish vositalari (radio, sun'iy yo'ldoshlar aloqasi va boshq.) orqali yetkazib beriladi;

atrof muhit monitoringi – atrof muhitning ekologik holatini kuzatib

помощью дальней передачи информации (радио, спутниковая связь и т.п.);

мониторинг окружающей среды – слежение за состоянием окружающей среды человека природной среды и предупреждение о создающихся критических ситуациях, вредных или опасных для живых организмов;

мониторинг региональный (monitor... + < лат. regio – область) – слежение за экологическим состоянием в пределах определенного региона, где оно может отличаться от базового фона.

Монобиоты (< гр. monos – один + biontos – живущий) — организмы, живущие только в одной среде (воздушной, водной) или в хозяевах (для паразитов), обитающих только в одной среде.

Моновольтинность (< гр. monos – один + ит. volta (повторение) — свойство видов животных, иметь только одно поколение в год (термин применяется для насекомых).

Моногамия (< гр. monos – один + gamos – брак) — единобрачие, спаривание самца с одной самкой в течение одного, нескольких сезонов или на всю жизнь (напр., из птиц лебеди, аисты, орлы, грифы – на всю жизнь; из млекопитающих хищники – на один сезон, обезьяны – на несколько лет). М. обычно сопровождается участием самца в заботе о потомстве.

Моноценоз (< гр. monos – один + koinos – общий) — сообщество, растительность которого составлена исключительно одним видом или главным образом одним видом растений. В природе очень редкое явление.

borish, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilib, tirik organizmlar uchun xavfli vaziyatlarning sodir bo'lishi mumkinligi haqida ogohlantirish;

regional monitoring (monitor...+< lot. regio – oblast) – ekologik vaziyati boshqa joylarning bazaviy fonidan farq qiluvchi alohida olingan bir regionning ekologik holatini kuzatib borish.

Monobiontlar (< гр. monos – бitta + biotikos – yashovchi) — faqat birgina muhitda yashovchi (havoda, suvda) yoki faqatgina bir muhitda yashovchi xo'jayinlarda yashovchi (parazit) organizmlar.

Monovoltinlik (< гр. monos – бitta + ит. volta – (takrorlanish) — hayvonlarning yilida bir marta ko'payib, avlod berish xususiyati (atama hasharotlarga nisbatan qo'llaniladi).

Monogamiya (< гр. monos – бitta + gamos – nikoh) — yagona juftlik, hayvonlar erkagining bir yoki bir necha yillar davomida бitta urg'ochi bilan qo'shilishi (mas., qushlardan oqqush, laylak, burgut va tasqaralar – bir umr, sut emizuvchilardan yirtqichlar – bir yil, maymunlar ko'p yil). М. da odatda erkak individ ham urg'ochi singari nasl uchun qayg'uradi.

Monotsenoz (< гр. monos – бitta + koinos – umumiy) — o'simliklar dunyosi birgina turdan yoki asosan bir turga mansub bo'lgan individlardan tashkil topgan birlashma. Tabiatda juda kam uchraydigan hodisa.

Морфоз (< гр. *morphe* – форма) — наследственное изменение организмов, вызываемое, в основном, факторами внешней среды.

Мутаген (< лат. *mutatio* – изменение + *generare* – порождать) — любой агент (фактор), вызывающий *мутацию*.

Мутация (< лат. *mutatio* – изменение) — резкое наследственное изменение организмов, меняющие их морфологические, физиологические и поведенческие признаки. Мутационная теория разработана голландским ученым Хуго Де Фризом (1848-1935) в 1901 г. Согласно теории мутационные изменения возникают внезапно и могут передаваться по наследству.

Мутуализм (< лат. *mutuus* – взаимный) — 1) форма взаимовыгодных симбиотических отношений, при котором каждый из сожителей получает относительно равную пользу (см. – *Комменсализм*); 2) форма совместного сосуществования организмов, при которой оба партнера (или один из них) не могут существовать без сожителя (напр., взаимовыгодное сожительство термитов и паразитирующих в их кишечниках жгутиковых, которые имеют отсутствующего у термитов фермент, превращающий древесину в усвояемые вещества. Без такого сожительства не смогли жить ни термиты и ни эти паразитирующие жгутиковые).

Нагрузка антропогенная (< *нагрузка* + гр. *anhrupos* – человек + *genos* – происхождение) — степень

Morfoz (< гр. *morphe* – shakl) — organizmlarning asosan tashqi muhit omillari ta'sirida irsiy jihatdan o'zgarishi.

Mutagen (< lot. *mutatio* – o'zgarish + *generare* – keltirib chiqarish) — *mutatsiyani* chaqiruvchi har qanday agent (omil).

Mutatsiya (< lot. *mutatio* – o'zgarish) — organizmlardagi morfologik, fiziologik va fe'l-atvor belgilarini o'zgartirishga olib keluvchi keskin irsiy o'zgarishlar. Mutatsion nazariyani 1901-y. gollandiyalik olim De Friz Xugo (1848-1935) asoslagan. Bu nazariyaga ko'ra mutatsion o'zgarishlar to'satdan paydo bo'ladi va nasldan-naslga berilishi mumkin.

Mutualizm (< lot. *mutuus* – o'zaro) — 1) ikki tomonlama foydali simbiotik munosabatlar bo'lib, bundan birga yashovchi organizmlarning barchasi ham baravar manfaat ko'radi (qar.– *Kommensalizm*); 2) organizmlar birga yashashining o'ziga xos shakli bo'lib, bunda har ikkala tomon ham (yoki uning bittasi) bir-birisiz yashay olmaydi (mas., qirchumoli va uning ichagida yashovchi xivchinli bir-birisiz yashay olmaydi, chunki qirchumoli, garchi yog'och kemirib oziqlansada, uning organizmi yog'ochni hazm qiluvchi shirani ishlab chiqarmaydi, balkim bu shirani uning ichagidagi parazit xivchinli ishlab chiqaradi va bundan har ikkalasi ham manfaatdor bo'ladi).

Н

Антропоген босим (< гр. *anhrupos* – inson + *genos* – kelib chiqish + *bosim*) — inson va inson xo'jalik faoliyatining

прямого и косвенного воздействия человека и его хозяйственной деятельности на экологическую среду и природу в целом (ландшафтам, природным ресурсам, живым организмам).

Нагрузка рекреационная (< нагрузка + лат. *rekreatio* — восстановление) — степень непосредственного влияния отдыхающих людей (туризм, сбор лесных ягод, спортивная охота, рыболовство и т.п.), их транспортных средств, временных и дачных жилищ на природные комплексы. Выражается в числе людей или человеко-дней на единицу площади или рекреационный объект за определенный промежуток времени.

Надежность экологическая — способность экосистемы относительно полно самовосстанавливаться (в течение естественных для системы суточных, сезонных, межгодовых и вековых флуктуаций) в течение сукцессионного или эволюционного отрезка ее существования.

Надзор санитарный — форма административного надзора за гигиеническим состоянием воды, воздуха, населенных мест и т.п., осуществляемый санитарной инспекцией.

Надпаразит (сверхпаразит) — паразит, паразитирующий в (на) другом паразитарном организме. Например, в пищевode комаров, желудке вшей, брюхе клопов живут паразитирующие, в них бактерии и одноклеточные грибы.

Нанноорганизмы (< гр. *nannos* — карлик + лат. *organismus* (живое

ekologik muhitga va umuman tabiatga (landshaftlarga, tabiiy resurslarga, tirik organizmlarga) ko'rsatadigan bevosita va bilvosita ta'sir darajasi.

Rekreatsioon bosim (< lot. *rekreatio* — qayta tiklash + *bosim*) — dam oluvchi odamlarning (turizm, o'rmonda mevalar terish, ov qilish, baliq tutish), ularning transport vositalari, chodirlari va dala hovli qurilishlarining tabiiy komplekslarga bevosita ko'rsatadigan ta'siri darajasi. Bu ko'rsatkich muayyan vaqt birligida maydonga nisbatan yoki rekreatsioon obyektga nisbatan dam oluvchilarning soni yoki sonkuni hisobida belgilanadi.

Ekologik barqarorlik — ekologik tizimning (tizim uchun tabiiy hisoblangan sutkalik, mavsumiy, ko'pyillik va asriy fluktuatsiyalari) suksessiya davomida yoki tizim hayotidagi evolyutsion davrning ma'lum bo'lagi davomida uning to'liq qayta tiklanaolish qobiliyati.

Sanitariya nazorati — sanitariya nozirliqi tomonidan suvning, havoning aholi punktining va boshqalarning gigiyenik holatini ma'muriy yo'l bilan nazorat qilish shakli.

Parazitning paraziti (o'ta parazit) — parazitlik qiluvchi boshqa parazitlar organizmlarda yashovchi parazit. Masalan, chivinlarning ichagida, bitning oshqozonida, burganing ko'krak qismida yashovchi bakteriyalar va bir hujayrali zamburug'lar.

Nannoorganizmlar (< gr. *nannos* — pakana + lot. *organismus* (tirik jon) —

тело) — организмы, величина которых менее 50 мкм. Термин применяется, в основном, по отношению к гидробионтам.

Направленность эволюции (лат. *Evoluto* — развертывание) — причинно-следственная цепь, ведущая кратчайшим закономерно-мерным путем к изменению живого от простого к сложному, от менее приспособленного к более приспособленному и отсекающая развитие других направлений.

Население биологическое — совокупность всех особей растительных, животных и микроорганизмов, занимающих определенное пространство.

Население животное — совокупность всех особей животных на определенном пространстве не зависимо от их видовой принадлежности (одного вида или различных видов).

Наследственность — одно из главных свойств живых существ передавать свои морфо-физиологические и поведенческие признаки потомству.

Неандерталец (< название долины Неандертал в Германии) — ископаемый человек, занимающий промежуточное положение между питекантропом (прямоходящая человекообразная обезьяна) и современным человеком. Остатки Н. впервые найдены в 1856 г. в Неандертальской долине (ФРГ).

Некрофаги (< гр. *nekros* — мёртвый + *phagos* — пожирающий) — организмы, питающиеся мертвыми животными. Н. по другому называются как трупоеды (напр., жуки-могильщики, мертвоеды,

kattaligi 50 μm dan kichik boʻlgan organizmlar. Atama asosan gidrobiontlarga nisbatan qoʻllaniladi.

Evolutsiyaning yoʻnaltirilganligi (lot. *evoluto* — rivojlanish) — tirik organizmlarning maʼlum qonuniyatga asoslangan eng qisqa yoʻl bilan oddiydan murakkabga, kamroqdan koʻproq moslanishga tomon rivojlanishi boʻlib, bunda uning yoʻlidagi barcha boshqa yoʻnalishlar qirqib tashlanadi.

Biologik jamoa — maʼlum bir maydonni egallagan barcha turdagi oʻsimliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar individlarining majmui.

Hayvonlar jamoasi — maʼlum bir maydonni egallagan, turidan qatʼiy nazar, barcha hayvonlar majmuasi. Bu majmuaga bir yoki birnecha turdagi hayvonlar kirishi mumkin.

Irsiyat — tirik mavjudotlardagi morfofiziologik va feʼl-avtor belgilarining avlodlarga oʻtishdek asosiy xususiyatlaridan biri.

Neandertal (< Germaniyadagi Neandertal vodiysining nomi) — pitekanтроplar (tikka turib yuruvchi odamsimon maymunlar) bilan zamonaviy odamlar oʻrtasidagi oraliq holatni egallagan qazilma holda topilgan odam. N. ning qoldiq suyaklari birinchi marta 1856-y. Neandertal vodiysidan (GFR) topilgan.

Nekrofaglar (< гр. *nekros* — oʻlik + *phagos* — yeydigan) — oʻlgan hayvon jasadi bilan oziqlanuvchi organizmlar. N. ga boshqacha qilib oʻlimtikxoʻrlar deyiladi (mas., qabr qoʻngʻizi, oʻlimtikxoʻr qoʻngʻiz, oʻlimtikxoʻr pashshalar-

личинки падальных мух, птицы-падальщики, такие, как черный гриф, стервятник и др.).

Нектоны (< гр. nektos – плавающий) обитатели пелагиали, способные к активному передвижению на значительные расстояния с помощью мускульных усилий (от мелких ракообразных до китообразных).

Нематоид (< гр. nematos – нить + caedere – убивать) — химическое вещество, применяемое для уничтожения круглых червей.

Неоантропы (< гр. neos – новый + anthropos – человек) — обобщенное название современных разумных людей (Homo sapiens). Абсолютный возраст наиболее древних представителей Н. 50-60 тыс. лет. Н. по-видимому произошли от прогрессивных форм палеоантропов, обитавших в Средней и Передней Азии и северо-восточной Африке.

Неогеновый период (< гр. neos – новый + genos – рождение, возраст) — второй период кайнозоя. Следует за палиогеном, предшествует антропогену. Начало примерно 25 млн. лет, конец 1,8 млн. лет назад, длительность больше 23 млн. лет. Завершение горообразования на Альпах, Карпатах, Балканах, Кавказе, Гималаях и других, значительное общее осушение. Оледенение Антарктиды. Достигли рассвета человекообразные обезьяны.

Неонтология (< гр. neos – новый + logos – учение) — комплекс биологических наук, изучающий современный органический мир. Экология является частью неонтологии.

ning lichinkalari, qushlardan tasqara, jo'rchi va boshqa o'limtikxo'rlar).

Nektonlar (< гр. nektos – suzuvchi) — muskul kuchi bilan uzoq masofalarga suzaoladigan pelagial organizmlar (ularning mayda qisqichbaqasimonlardan tortib yirik kistsimonlargacha bo'lgan vakillari mavjud).

Nematotsid (< гр. nematos – ip + caedere – o'ldirmoq) — yumaloq chuvolchaglarni qirishda foydalaniладigan kimyoviy modda.

Neoantropalar (< гр. neos – yangi + anthropos – odam) — hozirgi zamon zehni odamlarining (Homo sapiens) umumlashtirilgan nomi. Eng qadimgi N. ning mutloq yoshi 50-60 ming yil. N. ehtimol bir paytlar O'rta Osiyo va Osiyo oldi hududlari, shuningdek shimoliy-sharqiy Afrikada yashagan paleoantropalarning rivojlangan formalaridan kelib chiqqanlar.

Neogen davri (< гр. neos – yangi + genos – tug'ilish, yosh) — kaynozoyning ikkinchi davri. Paleogendan antropogengacha davom etadi. Boshlanishi bundan taxminan 25 mln yil, tugashi esa 1,8 mln yil oldin bo'lib, 23 mln yildan ko'proq hukm surgan. Bu davrda Alp, Karpat, Bolqon, Kavkaz, Himolay va boshqa tog'lar hosil bo'lgan, quruqlikning maydoni jiddiy kengaygan, Antarktidani muz egallagan. Bu davrda odamsimon maymunlar ravnaq topgan.

Neontologiya (< гр. neos – yangi + logos – fan) — hozirgi zamon organik dunyosini o'rganuvchi biologiya fanlari kompleksi. Ekologiya fani N. ning bir qismi hisoblanadi.

Нитрофикация, нитрификация (< лат. nitrogenium – азот + facere – делать) — процесс превращения азотосодержащих веществ в форму, усвояемую высшими растениями (напр., аммиак в почве с помощью аэробных нитрозных бактерий окисляется до азотистой кислоты, которая, в свою очередь, с помощью нитратных бактерий превращается в азотную кислоту).

Ноосфера (< гр. noos – разум + spaira – шар, среда) — буквально «мыслящая оболочка», сфера разума, высшая стадия развития биосферы, связанная с возникновением и становлением в ней человечества, когда разумная человеческая деятельность становится главным определяющим фактором развития на Земле. Понятие «Н.» введено в 1927 г. французскими учеными Эдуаром Леруа (1870-1954) и Пьером Тейяр де Шарденом (1881-1955) и в последующем развито В.И. Вернадским. По В.И. Вернадскому (1989) условия для становления Н. следующие: 1) заселение человеком всей Планеты; 2) резкое преобразование средств связи и обмена между странами; 3) усиление связей, в т.ч. политических, между всеми странами Земли; 4) начало преобладания геологической роли человека над другими геологическими процессами, протекающими в биосфере; 5) расширение границ биосферы и выход в космос; 6) открытие новых источников энергии; 7) равенство людей всех рас и религий; 8) увеличение роли народных масс в решении вопросов внешней и внутренней политики; 9) свобода

Nitrofikatsiya, nitrifikatsiya (<gr. nitron – selitra, soda + facere – qilmoq) — tarkibida azot saqlagan moddalarning o'zgarib, yuksak o'simliklar olaoladigan darajaga aylanish jarayoni (mas., tuproqdagi ammiak aerob nitroz bakteriyalar yordamida oksidlanib, azotli kislotani hosil qiladi va u o'z navbatida nitrat bakteriyalari yordamida azot kislotasiga aylanadi).

Noosfera (<gr. noos – aql-zakovat, zehn + spaira – shar, muhit) — aynan ma'noda «fikirlovchi qobiq», aql-zakovat doirasi, biosfera rivojining yuqori bosqichi bo'lib, u insoniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi davomida kelib chiqdi. N. da yer yuzi jarayonlarining rivojida asosiy omil aql-zakovatli inson faoliyati hisoblanadi. «N.» atamasini fanga 1927-y. fransuz olimlari Lerua Eduar (1870-1954) va Teyyar de Sharden P'yer (1881-1955) kiritgan va uni keyinchalik rus olimi V.I. Vernadskiy rivojlantirgan: V.I. Vernadskiyning fikricha (1989) N. ning shakllanishi uchun quyidagi sharoitlar talab qilinadi: 1) insonlar yer yuzining barcha joyini ishg'ol qilishi; 2) aloqa vositalarining keskin o'zgarishi va mamlakatlararo axborot almashishning vujudga kelishi; 3) Yer yuzidagi barcha davlatlar orasida aloqalarning, sh.j. siyosiy aloqalarning kuchayishi; 4) inson geologik rolining biosferada sodir bo'ladigan geologik jarayonlar ustidan hukmron bo'lishi; 5) biosfera chegaralarining kengayishi, kosmosga chiqish; 6) yangi energiya manbalarining topilishi; 7) barcha turdagi din va irqqa mansub bo'lgan kishilarning teng huquqliligi; 8) davlatning ichki va tashqi siyosatiga doir masalalarning yechilishida xalq ommasi rolining

научной мысли и научного искания от давления религиозных, философских и политических построений и создание в государственном строе условий, благоприятных для свободной научной мысли; 10) продуманная система народного образования и подъем благосостояния трудящихся; 11) разумное преобразование первичной природы Земли с целью сделать его способной удовлетворить все материальные, эстетические и духовные потребности численно возрастающего населения; 12) исключение войн из жизни общества.

Норма выброса — суммарное количество газообразных и (или) жидких отходов, разрешаемое предприятию для сбора в окружающую среду. Объем Н.в. определяется из расчета, что кумуляция вредных выбросов от всех предприятий данного региона не создает в нем концентраций загрязнителей, превышающих норму допустимой его концентрации.

Норма промысла — лимит изъятия эксплуатируемых природных ресурсов (полезных ископаемых, лесов, наземных и морских животных, ягод, грибов и т.п.), обеспечивающий их самовосстановление или постепенность использования, т.е. Н.п. — это есть качественно-количественное ограничение: 1) предотвращающее нарушение структуры и функционирования экосистем (их половозрастного состава, сложения, внутренних взаимоотношений и т.д.); 2) обеспечивающее социально — экономически обоснованную постепенность расходов

kuchayishi; 9) ilmiy fikrlash va ilmiy tadqiqotlarning diniy, falsafiy va siyosiy tuzumdan ozodligi, davlat qurilishida erkin ilmiy fikrlash imkoniyatining yaratilishi; 10) puxta o'ylangan xalq maorifi tizimini yaratish, mehnatkashlarning farovonligini oshirish; 11) yerning birlamchi tabiatini ko'payib borayotgan aholining barcha moddiy, ma'naviy va estetik ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida oqilona o'zgartirish; 12) jamiyat hayotidan urushlarni chiqarib tashlash.

Chiqarib tashlash me'yor — korxonaning atrof muhitga chiqarib tashlaydigan zararli gazsimon va suyuq chiqindilarining ruxsat etiladigan umumiy miqdori. Bunday chiqindilarning hajmini belgilashda regionda joylashgan barcha korxonalardan chiqariladigan zararli moddalarning yo'l qo'yiladigan chegaraviy konsentratsiyasi meyordan oshib ketmasligiga e'tibor beriladi.

Foydalanish me'yor — tabiiy resurslarni (qazilma boyliklar, o'rmonlar, quruqlik va dengiz hayvonlari, mevalar, zamburug'lar va h.k.z.) ulardan o'z-o'zini tiklashiga imkon bergan holda foydalanishning belgilangan miqdori. F.m. — bu tabiiy resurslardan foydalanishga son va sifat jihatdan qo'yilgan chegara bo'lib, u: 1) ekotizimlarning faoliyat ko'rsatishini va tarkibini (ularning yosh va jinsiy tarkibi, tuzilishi, o'zaro ichki munosabatlari va h.k.z.ni) buzilishdan saqlaydi; 2) qayta tiklanmaydigan resurslarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan asoslangan holda birin-ketin xarajat qilishni ta'minlaydi.

вания невозобновимых ресурсов.

Норма санитарно-гигиеническая — качественно-количественный показатель, соблюдение которого гарантирует безопасные или оптимальные условия существования человека.

Оазис (< гр. oasis (по названию города Оазиса в Египте) — 1) территория в зоне жарких пустынь и полупустынь, где благодаря орошению возможно произрастание древесной растительности и земледелие, а условия жизни человека более комфортны, чем на окружающих пространствах; 2) скалистый участок суши на побережье Антарктиды, свободный от льдов, имеющий характер засоленной каменистой пустыни с холодным сухим климатом.

Обезвреживание отходов — обработка отходов с получением веществ, могущих войти в природные биогеохимические циклы или не оказывающих вредного воздействия на среду жизни (напр., компостированием промбытовых отходов получение компоста с последующим вовлечением в цикл круговорота веществ). См. — *Компост*.

Обеззараживание — комплекс мероприятий, направленных на: 1) подавление очага инфекционных заболеваний; 2) разрушение образовавшихся или распространенных в среде ядов; 3) уничтожение заражения карантинных видов растений и животных; 4) стерилизация инструментов, материалов и помещений.

Sanitariya-gigiena me'yori — insonning xavf-xatarsiz yashashi va normal hayot kechirish sharoitlarini kafolatlovchi sifat va son jihatdan belgilab qo'yilgan ko'rsatkichlar.

O

Oazis (< гр. oasis (Misrdagi Oasia shahri nomidan) — 1) jazirama issiq sahro va chalasahro zonasidagi sug'orib ekiladigan hudud. Yer sug'orilganligi munosabati bilan bu hududda daraxtlar o'sadi, dehqonchilik qilinadi, insonning hayot muhiti atrofda o'zlashtirilmagan (sahro va chalasahro) hududlarga ko'ra qulay bo'ladi; 2) quruqlikning Antarktida qoyali sohillaridagi muzdan bo'shagan, sovuq va quruq iqlimli, sho'rlangan toshloq sahrolarga ega bo'lgan qismi.

Chiqindilarni zararsizlantirish — chiqindilarni qayta ishlab ulardan tabiiy biokimyoviy aylanish jarayonlariga kirishadigan yoki muhitga zararli ta'sir ko'rsatmaydigan moddalar hosil qilish (mas., sanoat va turmush chiqindilaridan kompost hosil qilish yo'li bilan uni modda aylanish jarayoniga qaytarish. Qar. — *Kompost*.

Yuqumsizlashtirish — quyidagi tadbirlar kompleksidan iborat: 1) yuqumli kasallik tarqatuvchi manbani kamaytirish; 2) muhitda tarqalgan zaharni parchalab zararsizlantirish; 3) karantin ostiga olingan o'simlik va hayvon turlarini yuqumli kasalliklardan xoli qilish; 4) asbob-uskuna va binolarni sterillash (zararsizlantirish).

Облако индустриальное — скопление пара, возникшее над индустриально развитым городом вследствие выброса большого количества нагретого воздуха, а также облако, образующееся в результате конденсации влаги на дымовых частиц.

Область биогеографическая (< гр. biotikos — живой) — крупнейшее подразделение биосферы, возникшее в результате эволюционного развития живых организмов.

Область зоогеографическая (< гр. zoon — животное) — региональная единица распространения животных, эволюционно сложившаяся в результате общности места и времени происхождения, путей расселения и длительного совместного обитания различных видов животных в общих условиях существования.

Облигатные (< лат. obligatus — обязательный, непременный) — обязательные, постоянно встречающиеся. Например, *O.* паразиты — паразиты, которые постоянно живут в (на) теле хозяина и без которого не могут существовать. См. — *Паразиты облигатные*.

Облучение — воздействие на живой организм любыми видами излучений: инфракрасным, видимым и ультрафиолетовым солнечным светом, космическими лучами и ионизирующими излучениями земного происхождения (напр., радиоактивными веществами, рентгеновыми лучами). См. — *Излучение*.

Industrial bulut — sanoati rivojlangan shahar tepasiga qizigan havoning ko'p miqdorda chiqarilishi natijasida suv bug'ining to'planishi, hamda havodagi tutun zarralariga namlikning yutilishi (kondensatsiyalanishi) dan paydo bo'lgan bulut.

Biogeografik hudud (< гр. biotikos — tirik) — biosferaning tirik organizmlar evolyutsion rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan juda yirik bo'linmasi.

Zoogeografik hudud (< гр. zoon — hayvon) — har xil turga mansub bo'lgan, evolyutsion rivojlanish davomida uzoq vaqt ma'lum bir xildagi yashash sharoitida umumiy maydonni egallab birga yashab kelayotgan, kelib chiqish joyi, muddatlari va tarqalish yo'llari umumiy bo'lgan hayvonlar yashash joylarining regional birligi.

Obligatlar (< lot. obligatus — majburiy, zaruriy) — majburiy, doimiy uchraydigan organizmlar. Masalan, *O.* parazitlar — xo'jayinning gavdasi ichida yoki uning sirtida doimiy yashovchi parazit organizmlar bo'lib, ular xo'jayinsiz yashay olmaydilar. Qar. — *Obligat parazitlar*.

Nurlantirish — tirik organizmga turli xildagi nurlarning ta'sir etishi: quyoshdan keladigan infraqizil, ultrabinafsha va ko'zga ko'rinadigan yorug'lik nurlari, fazoviy jismlarning nurlari, yerda kelib chiqadigan ionlashtiruvchi nurlar (mas., radioaktiv moddalardan tarqaladigan nurlar, rentgen nurlari). Qar. — *Nurlanish*.

Обогащение полезных ископаемых — *металл.* обработка полезных ископаемых с целью отделения ценных минералов от пустых пород. Оно основано на различии физико-химических свойств отдельных минералов. Обогащению подлежат низкопроцентные руды, которые из-за низкого содержания металла не могут идти непосредственно в плавку. Продуктом О.п.и. являются *концентраты*. Методы обогащения в зависимости от удельного веса, магнитной проницаемости, смачиваемости, крупности и так далее, самые разнообразные: *гравитационное* обогащение, *электромагнитное* обогащение, *флотационное* обогащение, *классификаторное* обогащение и другие.

Оболочка биогеоценоотическая (< гр. bios – жизнь + ge – Земля + koinos – общий) — совокупность биоценозов поверхности Земли. Толщина О.б. на суше до 300 м от её поверхности.

Оболочка земная — область жизни (биосфера), захватывающая тропосферу, гидросферу и часть стратисферы (кору выветривания).

Образ жизни — все разнообразия отношений особой вида к абиотическим и биотическим условиям среды, определяемые наличием комплекса специфических для вида приспособлений, возникших в ходе эволюции вида.

Объект охраняемый (< лат. objectum – предмет) — 1) памятник природы или архитектуры, находящийся под

Foydali qazilmalarni boyitish — *metall.* kambag'al tog' jinslardan qimmatli minerallarni ajratib olish maqsadida foydali qazilmalarni qayta ishlash. Bu ish turli minerallarning fizik va kimyoviy xususiyatlari turlicha bo'lishiga asoslangan. Tarkibida u yoki bu qimmatli mineralning miqdori kam bo'lgan va shuning uchun ham bevosita eritish uchun yaramaydigan rudalar qayta ishlab, boyitiladi. F.q.b. da *konsentrat* hosil qilinadi. Boyitish usullari mineralning solishtirma og'irligi, magnit o'tkazuvchanligi, ivishi, donadorligi va boshqa xususiyatlariga ko'ra turlicha bo'ladi: *gravitatsion* boyitish, *elektromagnitli* boyitish, *flotatsiya* usuli bilan boyitish, *klassifikator* usuli bilan boyitish va boshqalar.

Biogeotsenotik qobiq (< гр. bios – hayot + ge – Yer + koinos – umumiy) — yer yuzidagi barcha biotsenozlarning yig'indisi. B.q. ning qalinligi quruqlikda yer sirtidan 300 m gacha.

Yer qobig'i — troposfera, gidrosfera va stratisferaning bir qismini (tuproq hosil bo'lgan qatlamni) qamrab olgan hayot muhiti (biosfera).



Hayot tarzi — tur individlarining muhitning biotik va abiotik omillariga munosabati xillari bo'lib, bu munosabatlar o'sha turning evolyutsiyasi jarayonida uning muhit omillariga o'ziga xos moslashish xususiyatlari bilan belgilanadi.

Muhofazalanuvchi obyekt (< lot. objectum – predmet) — 1) qonun yoki urf-odatlar bilan muhofaza ostiga olingan tabiat yoki me'morchilik yod-

охраной закона или обычаяв; 2) любой природный объект (вид, популяции, памятник природы, заповедник и др.), юридически находящийся под особой охраной.

Овицид (овоцид) (< лат. ovum – яйцо + caedere – убивать) — химическое вещество, используемое для уничтожения яиц насекомых.

Озон (гр. ozon – пахнущий) — трехатомная молекула кислорода (O_3). Он открыт в 1875 г. голландским учёным М. Марумом. Обладает большой химической реактивностью и токсичностью. При небольших концентрациях обладает запахом «свежести», а при больших концентрациях он приобретает синий цвет, обладает резким запахом и легко взрывается. Средняя продолжительность жизни O_3 в атмосфере 50 суток. Он распадается под воздействием жестких ультрафиолетовых лучей Солнца длиной волн 240-320 nm. Процесс его распада могут ускорять и разные химические катализаторы, например, оксид азота и хлорфторуглеродные соединения. Попадая в озоносферу они вступают в цикл из двух реакций:





При температуре 111,9 °С O_3 превращается в синюю кипящую жидкость. Его ПДК в воздухе $10^{-5}\%$. Он образуется в воздухе на высоте 20-32 км. под воз-

горligi; 2) yuridik asosda alohida muhofaza ostiga olingan turli xildagi tabiiy obyektlar (tur, populyatsiya, tabiat yodgorligi, qo'riqxonona va boshq.).

Ovitsid (ovotsid) (< lot. ovum – tuxum + caedere – o'ldirmoq) — hasharotlarning tuxumini yo'qotishda foydalani-ladigan kimyoviy modda.

Озон (гр. ozon – hidli) — kislorodning uch atomli molekulasi (O_3). U 1875 yil gollandiyalik olim M. Marum tomonidan kashf qilingan. Yuqori darajada kimyoviy reaksiyaga kirishuvchi zaharli modda. Kichik konsentratsiyada o'ziga xos «musaffo» hidga ega, ammo yuqori konsentratsiyada u ko'kish tusga kiradi, hidi o'tkirlashadi va yengil portlaydi. O_3 molekulasi atmosferada o'rtacha 50 sutkagacha turaoladi. U Quyoshning to'liq uzunligi 240-320 nm bo'lgan ultrabinafsha nurlari ta'sirida parchalanadi. Bundan tashqari uning parchalanishini turli kimyoviy katalizatorlar, masalan, azot oksidi, xlorfторуглерод birikmalari ham tezlatishi mumkin. Azot oksidi ozonosferaga tushgach ikki sikldan iborat reaksiyaga kirishadi:



111,9°С haroratda qaynab, ko'kimitir suyuqlikka aylanadi. Uning havodagi yo'l qo'yiladigan konsentratsiyasi (PDK) $10^{-5}\%$. U atmosferaning 20-32 km balandligida quyosh radiatsiyasi va elektr zaryadlari ta'sirida hosil bo'ladi. Havodagi O_3 ning umumiy massasi 4 mlrd t bo'lib, u atmosferaning yerdan 50 km balandligigacha uchraydi. Uning

действием солнечной радиации и при электрических зарядах. Его общая масса в атмосфере 4 млрд. т и рассеян до высоты 50 km от Земли. Наибольшая концентрация на высоте 20-25 km, а концентрация O. в приземном слое атмосферы не более 10^{-7} – 10^{-5} %. При повышенной концентрации он ядовит и вызывает «озонную болезнь» (сухая кашель, сильная одышка, головная боль, усталость, раздражение глаз, кровотечение из носа). Вместе с тем, каждый уменьшенный от нормы процент O. на Земле вызывает до 150 тыс. дополнительных случаев слепоты из-за катаракты, на 2,6% увеличивает раковые заболевания кожи и увеличивает число мощных лесных пожаров.

Озонасфера, озоновый экран (гр. ozon – пахнущий + spaira – среда) — слой атмосферы, лежащий на высоте 20-25 km от Земли, где в стратосфере озон сгущаясь образует своеобразный экран (толщиной 1-3 mm) активно поглощающий коротковолновое ультрафиолетовое излучение Солнца. Соответственно O. является охраняемым биосферы от жесткого (короче 280 nm) ультрафиолетового излучения, весьма опасного для всего живого на Земле. Одной из глобальных экологических проблем современности является сохранение целости озонового экрана, т.к. концентрация озона в атмосфере снижается, в защитном озоновом слое периодически появляются «дыры» – области с предельно

eng yuqori konsentratsiyasi 20-25 km balandlikda, yer sirtidagi havoda esa 10^{-7} - 10^{-5} % ni tashkil qiladi. O. yuqori konsentratsiyada zaharli bo'lib, «ozon kasalligi»ni keltirib chiqaradi (quruq yo'tal, nafas tiqilishi, bosh og'rishi, tez charchash, ko'zlar qichishi, burundan qon ketishi). Ammo O. ning me'yordan har bir foizga kamayishi yer yuzida katarakta kasalligidan ko'zi ko'ra bo'ladi. Sonini 150 mingtaga, terak kasalliklarini 2,6 % ga ko'paytiradi va kuchli o'rmon yong'inlarini keltirib chiqaradi.

Озонасфера, озон экран (гр. ozon – hidli + spaira – muhit) — stratosferaning yerdan 20-25 km balandligidagi atmosfera qatlami bo'lib, bu yerda ozon quyuvlashib o'ziga xos ekran hosil qiladi (qalinligi 1-3 mm). U Quyoshdan kelayotgan ultrabinafsha nurlarining ko'p qismini yutishi bilan yerdagi tiriklikni qisqa to'liqinli (280 nm dan qisqa) ultrabinafsha nurlarining halokatli ta'siridan saqlab qoluvchi biosfera qalqoni hisoblanadi. Hozirgi kunning global ekologik muammolaridan biri ozon ekranini butunligini saqlab qolish, chunki atmosferada ozonning konsentratsiyasi pasayishidan ozon qatlamida davriy ravishda «ozon tuynuklari» paydo bo'lmoqda. NASA (AQSh) ma'lumotlariga ko'ra ozon miqdorining kamayishi asosan freon ta'sirida hamda quyosh aktivligi oshishi ta'sirida uning parchalanishidan kelib chiqadi. Taxminiy hisoblarga ko'ra hozirgi vaqtda

низким содержанием озона. По подтверждению НАСА (США) содержания озона снижается как по причине разрушительного воздействия фреона, так и по причине воздействия солнечной активности. По предварительным расчётам годовые выбросы фреона в настоящее время составляют 1 млн. т, к 2075 г. оно может увеличиться на 2,5%, что уменьшит озоновый слой на 19%. Для предотвращения истощения О. в 1985 г. с участием 120 государств мира подписана «Венская конвенция об охране озонового слоя», которая получила дальнейшее развитие в Монреальском протоколе (1993), Лондонской (1998) и Копенгагенской (1998) поправках Монреальского протокола по веществам, разрушающим озоновый слой. Согласно последних документов годовое использование фреона на душу населения регламентировано на уровне 0,3 кг. Этот показатель в развитых странах мира равен 3-4 кг, а в Узбекистане – 0,1 кг (данные 1996 г.). Республика Узбекистан является участником конвенции с 18.05.1993 г, ратифицирована она в 1998 г. Правительство Республики Узбекистан оказывает серьезную заботу о защите озонового слоя (Постановление К.М. Республики Узбекистан от 24.01.2000 г. № 20 «О мерах по выполнению международных обязательств Республикой Узбекистан по договорам в области защиты озонового слоя», Постановление К.М. Республики Узбекистан от 14.03.2000 г. № 90

havoga chiqarilayotgan freonning yillik miqdori 1 mln t bo'lib, 2075-yilda bu miqdor 2,5% ga ko'payishi va ozon qatlamini 19% ga kamaytirishi mumkin. Ozon qavatining butunligini saqlab qolish maqsadida 1985-y. 120 davlat ishtirokida «Ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha Vena konvensiyasi» imzolandi va u Monreal bayonnomasida (1993-y.) rivojlan-tirildi. Keyinchalik bu bayonnoma London (1998) va Kopingagenda (1998) qayta ko'rib chiqib to'ldirildi. Bu hujjatlarda freondan yillik foydalanishni aholi jon boshiga 0,3 kg. dan oshirmaslik belgilab berildi. Hozirgi paytda bu ko'rsatkich dunyoning rivojlangan mamlakatlarida 3-4 kg bo'lgani holda, O'zbekistonda 0,1 kg ni tashkil qiladi (1996-y. ma'lumoti). O'zbekiston Respublikasi 1993-y. 18-mayda konvensiyaga a'zo bo'ldi va uni 1998-yilda ratifikatsia qildi. O'zbekiston Respublikasi hukumati ozon qatlamini himoya qilishga katta e'tibor qaratadi va respublikaning shartnomaga a'zo bo'lishidagi majbu-riyatlarini bajarilishi to'g'risida alohida g'amxo'rlik qiladi (O'zbekiston Res-ublikasi V.M. ning 24.01.2000-yilgi «Ozon qatlamini himoya qilish bo'yicha xalqaro shartnomalarni bajarish borasida O'zbekiston Respub-likasining chora-tadbirlari to'g'risida» gi 20-sonli Qarori, 14.03.2000-yilgi «O'zbekiston Respublikasiga ozonni yemiruvchi moddalar va ularni saqlovchi mahsulotlarni olib kirishni tartibga solish haqida» gi 90-sonli Qarori). BMT tomonidan 16 sentyabr *ozon qatlamini himoya qilish Kuni* deb e'lon qilingan.

«О регулировании ввоза в Республику Узбекистан озоноразрушающих веществ и продукции, их содержащей»). 16 сентября ООН объявлен *Днём защиты озонового слоя*.

Озоновая «дыра» (гр. ozon – пахнувший) — впервые отмечена в начале 80-х годов прошлого столетия. К настоящему времени в значительном пространстве озоносферы содержание озона уменьшилось наполовину и О.«д». стали чаще появляться. В последнее время эти дыры над Антарктидой составляют более 14 млн. км² и ежегодно расширяются примерно на 4 процента (менее значительны над Арктикой). Причины возникновения О.«д». пока не совсем ясны. Предполагается как *естественное* (инверсионные процессы, повышение солнечной активности), так и *антропогенные* (выбросы фреонов, уменьшение содержания атмосферного кислорода) их происхождение.

Океан Мировой (гр. okeanos – бог водной стихии) — глобальная совокупность всех океанов и их морей. Общая площадь О. М. – более 360 млн. км². Средняя глубина 3800 м. Самые глубокие места в Тихом (Марианский желоб) – 11022 м и Атлантическом океанах (Пуэрто-Рико) – 8385 м. Общий объем вод О.М. 1370 млн. км³ (Реймерс, Яблоков, 1982).

Окисление биологическое (< гр. oxus – кислый + biotikos – живой) — совокупность биохимических реакций окисления, протекаю-

Ozon «tuynugi» (гр. ozon-hidli) — birinchi marta o'tgan asming 80-yillarida kuzatilgan. Hozirgi vaqtgacha ozonosferaning katta maydonida ozoning miqdori oldingisidan yarmigacha kamayib qolgan va shu boisdan O.«t». tez-tez paydo bo'lib turibdi. Hozirgi kunda bu tuynuklar Antarktida ustida 14 mln km² dan ko'proq maydonni egallagan bo'lib, ular har yili 4 foiz atrofida kengayib bormoqda (Arktika ustida bundan kamroq). O.«t». ning paydo bo'lish sabablari hozircha unchlik aniq emas. Taxmin qilinishicha, u *tabiiy* (havodagi inversion jarayonlar, quyosh aktivligining oshishi) va *antropogen* (havoga freonlarning chiqarilishi, atmosfera kislorodining kamayishi) omillar ta'sirida paydo bo'ladi.

Dunyo Okeani (гр. okeanos – сув muhitining xudosi) — dunyodagi barcha dengiz va okeanlarning majmui. D.O. ning umumiy maydoni 360 mln km² dan ko'proq. Uning o'rtacha chuqurligi 3800 m. Eng chuqur joylar Tinch (Mariana novi) – 11022 m va Atlantika okeanlarida (Puerto-Riko) – 8385 m. D.O. suvining umumiy hajmi 1370 mln km³ (Reymers, Yablokov, 1982).

Biologik oksidlanish (< гр. oxus – nordon + biotikos – tirik) — tirik to'qimalarda kechadigan biokimyoviy oksidlanish reaksiyalari majmui bo'lib,

щих в живых клетках, благодаря чего организм обеспечивается энергией.

Окраска биологическая (экологическая) — маскирующая или устрашающая расцветка особой видов. См. — *Предупреждающая окраска*.

Экологик валентлик (< гр. oikos – uy, vatan + lot. valentis – kuch) — turning muhit sharoitlari oʻzgarishiga moslashaolish darajasi. E.v. turning muhitdagi koʻpchilik omillar yoki alohida bir omilning oʻzgarishiga chidayolishiga qarab belgilanadi. Muhit omilining kuchli oʻzgarishiga chidaydigan turlarning ekologik guruhi ifodalanganda uning oldiga «evri» qoʻshimchasi, muhit omilining oʻzgarishiga chidamaydigan turlarning ekologik guruhi ifodalanganda esa uning oldiga «steno» qoʻshimchasi qoʻyiladi (mas., harorat oʻzgarishiga chidayolisiga koʻra – *evritermlar* va *stenotermlar*). Muhit kompleks omillarining oʻzgarishiga reaksiyasiga koʻra organizmlar *evribiontlar* va *stenobiontlar* guruhlariga boʻlinadi.

Экологик нисха (< гр. oikos –uy, vatan + фр. niche – devordagi oʻyiq) — tirik organizmlar turlarining biotsenozdagi oʻrni va roli. «E.n.» atamasini fanga ilk bor 1917-y. amerika ekologu Djozef Grinell (1877-1939) turning makonni egallash xarakteristikasi sifatida taklif etgan. E.n. da bir tur boshqa turlar bilan muhitning trofik (ozuqa) omillaridan foydalanishda raqobatga kirishmaydi. E.n.ning asosiy maʼnosini saqlab qolgan holda turli mualliflar uni turlicha talqin qiladilar. Sitnik K.M. va boshq. (1987) fikriga koʻra E.n. ga organizmlarning

разному. По Сытнику К.М. и др. (1987) Э.н. включает в себе пространство, занимаемое организмами вида, их функциональную роль в сообществе, положение относительно градиентов факторов внешней среды, а также их морфоструктурную приспособленность, физиологические и поведенческие реакции. Стадницкий Г.В. и Родионов А.И. (1988) Э.н. определяют как «совокупность множества параметров среды, определяющих условия существования того или иного вида». Американский зоолог Чарлз Сазерленд Элтон (1927) ее определил как положения вида в сообществе, подчеркнув особую важность трофических связей. По американскому экологу Джорджу Хатчинсону Э.н. можно представить как часть воображаемого многомерного пространства (гиперобъема), способствующего нормальному существованию вида. Расхождение Э.н. разных видов, в т.ч. экологически близких, происходит за счет их приуроченности к разным местообитаниям, разной пище и разному времени использования одного и того же местообитания. Занятие разобщенной Э. н. видами – единственный путь к выходу из конкуренции (Джиллер, 1988). Этимон «nishe – углубление в стене» здесь не подходит (от составителя).

egallaydigan maydoni, ularning birlashmadagi funksional roli, tashqi muhit omillarining ta'siriga nisbatan tutadigan o'rni, ularga morfologik va tarkibiy tuzilishdagi moslanishlari, fiziologik reaksiyasi va hattiharakatlari kiradi. Stadnitskiy G.V. va Rodionov A.I. (1988) E.n. ni «u yoki bu turning yashash sharoitlarini belgilovchi muhit xususiyatlarining majmui» (muallif tarjimasini!) deb talqin qiladilar. Amerika zoologi Charlz Sazerlend Elton (1927) E.n. ni turning birlashmada tutgan o'mi deb bilib, bunda alohida e'tiborni trofik aloqalarga qaratadi. Amerika ekologi Djordj Xatchinson fikriga ko'ra E.n. ni turning normal yashashi uchun imkoniyat yaratib beradigan ko'po'lchamli (giperhajmli) makon sifatida tasavvur qilish mumkin. Bunda har xil turlar, sh.j. ekologik o'zaro yaqin turlarda E.n. ning birbiridan ajralib ketishi ularning turli yashash sharoitlarini egallashlari, turli ozuqalar bilan oziqlanishlari va bir joyning o'zida sutkaning turli paytlarida aktiv hayot kechirishlarida namoyon bo'ladi. Turli E.n. ni egallash — turlar raqobatdan chiqishining yagona yo'li hisoblanadi (Djiller, 1988). Этимон «nishe – devordagi o'yiq» bu o'rinda kerakli ma'noni bermaydi (tuzuvchidan).



Разные виды травоядных животных поедают траву на разной высоте в африканских саваннах (*верхние ряды*) и в степях Евразии (*нижние ряды*)

Экологическое равновесие (< гр. oikos – дом, родина + *равновесие*) — относительная устойчивость взаимодействия биотических и абиотических факторов среды. Под Э.р. биотических факторов принимается устойчивость видового состава организмов, их численности, продуктивности, пространственной структуры, биотического круговорота веществ в природе и других жизненно важных процессов в любых сообществах. Под Э.р. в абиотической среде понимают относительную стабильность газового состава атмосферы, гидрологического режима и других факторов внешней среды. Без знания сложных и взаимосвязанных механизмов Э.р.

Turli o'txo'r hayvonlar Afrika savannalarida (*yuqori qatorlarda*) va Evroosiyo dashtlarida (*pastki qatorlarda*) turli balandlikdagi o'tlar bilan oziqlanadilar

Ekologik muvozanat (< гр. oikos – uy, vatan + *muvozanat*) — muhit abiotik va biotik omillari o'zaro ta'sirining nisbatan turg'un bo'lishi. Biotik omillarning E. m. ti deganda turlar tarkibining va ular sonining barqarorligi, ularning mahsuldorligi, maydonni egallashi, tabiatda kechadigan biotik modda aylanishidagi o'rning mustahkamligi va birlashmada sodir bo'ladigan boshqa muhim jarayonlarning turg'unligi tushuniladi. Abiotik muhitdagi omillarning E.m. ti deganda esa atmosferaning gazlar tarkibi, tashqi muhitning namlik rejimi va boshqa jonsiz tabiat omillarning nisbatan turg'unligi tushuniladi. E.m.ning murakkab va o'zaro bog'lanishlar mexanizmini tushunmay turib tabiatdan samarali foydalanib va uni yashash uchun yaroqli holatda saqlab bo'lmaydi.

невозможно рациональное природопользование и сохранение природной среды в пригодном для жизни состоянии.

Экология (< гр. oikos – дом, родина + logos – учение) — наука о взаимоотношениях организмов на уровне биологических макро-систем (популяция, биоценоз) и их взаимосвязь с окружающей средой. Термин «Э.» впервые предложен немецким биологом, дарвинистом Эрнстом Геккелем (1834-1919) в 1866 г. для обозначения «общей науки об отношениях организмов к окружающей среде». Русский зоолог, эколог Станислав Семенович Шварц (1919-1976) развивая понятия об этой науке говорил — «я мог бы, не сходя с места, привести сто определенных экологии, и все они были бы более или менее правильными!». Э. – наука многораздельна и бурно развивающаяся. Изучая мировую литературу Валуконис Г.Ю. и Мурадов Ш.О. (2001) её разделяют на *общую Э., глобальную Э., региональную Э. и эволюционную Э.* *Общая Э.* подразделяется на факторальную экологию (аутэкология), популяционную экологию (синэкология) и биогеоценологию (см. *Аутэкология, Синэкология, Биогеоценология*). *Глобальная Э.* изучает экологическое состояние биосферы в целом. Главная её задача – изучение антропогенных изменений природной среды и обоснование методов её сохранения в интересах человечества. *Региональная Э.* изучает экологическое состояние регионов мира

Ekologiya (< gr. oikos – uy, vatan + logos – fan) — biologik makrotizimlar (populyatsiya, biotsenozlar) darajasidagi organizmlarning o‘zaro munosabatlari va ularning atrof muhit bilan bog‘lanishlarini o‘rganuvchi fan. «E.» atamasini fanga 1866-y. nemis biologi, darvinist olim Ernst Gekkel (1834-1919) «organizmlarning atrof muhit bilan o‘zaro munosabatlarini» belgilash uchun kiritgan. Bu fan to‘g‘risidagi fikrlar rivojida rus zoologi, ekolog Stanislav Semyonovich Shvarts (1919-1976) «men ekologiyaga yuz xil ta‘rif berishim mumkin va ularning barchasi ham u yoki bu darajada to‘g‘ri bo‘lib chiqadi!», degan edi. E. rivojlanayotgan sertarmoq fan. Jahon adabiyotini o‘rgangan Valukonis G.Yu. va Muradov Sh.O. (2001) uni *umumiy E., global E., regional E. va evolyutsion E.* ga bo‘ladi. *Umumiy E.* faktoral ekologiya (autekologiya), populyatsion ekologiya (sinekologiya) va biogeotsenologiyaga bo‘linadi (qar. — *Autekologiya, Sinekologiya, Biogeotsenologiya*). *Global E.* yaxlit biosferaning ekologik holatini o‘rganadi. Uning bosh vazifasi — tabiiy muhitdagi antropogen o‘zgarishlarni o‘rganish va muhitni insoniyat uchun yaroqli holda saqlash usullarini asoslab berishdan iborat. *Regional E.* dunyoning alohida regionlaridagi ekologik vaziyatni o‘rganadi va *u shahar ekologiyasi, qishloq xo‘jalik ekologiyasi* hamda *sanoat ekologiyasi* kabi tarmoqlarga

и подразделяется на *экологию городов, экологию сельского хозяйства и экологию промышленности*. В процессе развития промышленной экологии в последнее время от неё ответвлялась *инженерная экология*, изучающая взаимодействие общества с природной средой в процессе промышленного производства (объектом исследования инженерной экологии являются природно – промышленные системы — ППС). *Эволюционная Э.* возникла на стыке экологии и палеонтологии. Она изучает экологические аспекты эволюции на Земле (см. *Палеоэкология*). На стадии становления находятся *космическая экология, экология клетки, экология микроорганизмов* и другие. Кроме названных имеются различные отраслевые экологии: *химическая Э.* – комплексная дисциплина, изучающая всю совокупность химических связей в живой природе, *экономическая Э.* изучающая совокупность явлений, включающая общество как социально – экономическое целое (экономику и технологию) и ресурсы природы. Они находятся во взаимоотношениях положительной или отрицательной обратной связи (чем больше ресурсов природы и лучшие экологические условия, тем скорее развивается экономика, и наоборот).

Экология прикладная — изучение механизмов разрушения биосферы человеком и способов предотвращения этого процесса, разработка принципов рацио-

но-*bo'linadi*. Keyingi paytlarda sanoat ekologiyasi rivojlanishi jarayonida undan *muhandislik ekologiyasi* ajralib chiqdi. Muxandislik ekologiyasi sanoat ishlab chiqarishi jarayonida jamiyat bilan tabiiy muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadi (muxandislik ekologiyasining o'rganish obyekti sanoat-tabiat tizimi — STT hisoblanadi). *Evolyutsion E.* ekologiya va paleontologiya fanlari to'qnash kelishidan paydo bo'ldi. U yer yuzidagi evolyutsion rivojlanishning ekologik xususiyatlarini o'rganadi (qar.— *Paleoekologiya*). Hozirgi kunda *kosmik ekologiya, hujayra ekologiyasi, mikroorganizmlar ekologiyasi* va boshqalar shakllanmoqda. Bulardan tashqari ekologiyaning sohalarga tegishli tarmoqlari ham mavjud. *Kimyoviy E.* — tirik tabiatdagi kimyoviy bog'lanishlar majmuini, *iqtisodiy E.* jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy (iqtisod va texnologiya) va tabiiy resurslar bilan yaxlit tizim sifatida o'rganadi. Jamiyat bilan tabiiy resurslar bir-biri bilan o'zaro ijobiy yoki salbiy bog'liqlikda bo'lishi mumkin (tabiiy resurslar mo'l va ekologik vaziyat yaxshi bo'lsa, iqtisod ham tez rivojlanadi).

Amaliy ekologiya — inson ta'sirida biosferaning yemriliش jarayonini va bu jarayonning oldini olish mexanizmlarini o'rganish, muhitning ekologik holatini buzmasdan tabiiy

нального использования природных ресурсов без нарушения экологического состояния среды.

Экосистема (< гр. oikos – дом, родина + systema – сочетание, объединение) — совокупность совместно обитающих организмов и условий их существования. Термин «Э.» предложил английский ботаник Артур Джордж Тенсли (1871-1955) в 1935. В Э. все живые (растения, животные, микроорганизмы) и неживые (факторы абиотической среды) компоненты находятся в закономерной взаимосвязи друг с другом и образуют единую систему взаимообусловленных биотических и абиотических явлений и процессов. Размерная часть Э. представлена биогеоценозом и приложимо к объектам разной сложности и размеров. Можно выделить *микрoэкоcистeмы* (Э. гниющего пня или комка грибов на стволе дерева), *мезoэкоcистeмы* (Э. водоемов, лесов), *макрoэкоcистeмы* (Э. океанов и континентов) и *мегаэкоcистeму* (Э. биосферы в целом).

Экостаз (< гр. oikos – дом, родина) — 1) способность природой среды к самоочищению от вредных выбросов (сбросов); 2) в социальной экологии Э. трактуется как состояние относительного постоянства во взаимоотношениях в системе «человек – общество – природа», обеспечивающего их гармоничное развитие через разумного отношения человека к природе (Шадиметов, 1993).

Экосфера (< гр. oikos – дом, родина + spaira – шар, среда) — 1) совокупность свойств Земли,

resurslardan ratsional foydalanish tadbirlarini ishlab chiqish.

Ekotizim (< гр. oikos – uy, vatan + systema – birlikma, birlashma) — birga yashovchi organizmlar va ularning yashash muhiti majmui. «E.» atamasini fanga 1935-y. ingliz botanigi Artur Djordj Tensli (1871-1955) taklif etgan. E. da muhitning barcha tirik (o‘simlik, hayvon va mikroorganizmlar) va tirik bo‘lmagan (jonsiz tabiat omillari) komponentlari ma‘lum qonuniyat asosida o‘zaro aloqada bo‘lib, biotik va abiotik hodisa va jarayonlarning o‘zaro muvofiqlashgan yagona tizimini paydo qiladi. E. ning hajmiy ma‘nodagi qismi biogeotsenoz bo‘lib, u hajmi va murakkabligi jihatdan turlicha obyektarga taalluqli. Unga ko‘ra E. lar *mikroekotizim* (chiriyotgan to‘nka yoki daraxt poyasidagi bir siqim zamburug‘ E.), *mezoekotizim* (suv havzasi yoki o‘rmon E.), *makroekotizim* (okean, qit‘a E.) va *megaekotizim* (yaxlit biosferaning E.) ga bo‘linadi.

Ekostaz (< гр. oikos – uy, vatan) — 1) tabiiy muhitning zararli moddalardan o‘z-o‘zini tozalayolish xususiyati; 2) E. ijtimoiy ekologiyada «inson – jamiyat – tabiat» tizimidagi o‘zaro munosabatlarning nisbatan turg‘unligi va insonning tabiatga ko‘rsatadigan ta‘siri oqilona bo‘lishi asosida ularning birgalikda rivojlanishini ta‘minlash tushunchasi sifatida qo‘llaniladi (Shadimetov, 1993).

Ekosfera (< гр. oikos – дом, родина + spaira – шар, muhit) — 1) Yerning unda hayot rivojlanishi uchun

создающих на ней условия для развития жизни (биотоп биосферы). Э. пространственно включает тропосферу, всю гидросферу и верхнюю часть литосферы; 2) синоним *биосферы*; 3) совокупность космического тела и его влияния на среду космического пространства, например, экосферы Солнца (Реймерс, Яблоков, 1982).

Экотоп (< гр. oikos – дом, родина + topos – место, местность) — местообитание сообщества. По другому Э. – совокупность абиотических факторов в биогеоценозе, который состоит из климатических (климатоп), почвенно – грунтовых (эдафотоп) и водных (гидротоп) факторов.

Экоцид (< гр. oikos – дом, родина + лат. caedere – убивать) — преднамеренное разрушение среды обитания, приводящее к истреблению всего живого на больших территориях.

Экран озоновый (< fr.ekran – предохранительный щит + озон) — на высоте 20 – 25 км от Земли (в стратосфере) озон сгущаясь образует газовый слой, так называемый, «озоновый экран». Несмотря на ничтожную толщину (1 мм на полюсах и 3 мм на экваторе) Э. о. поглощает 13 % солнечную энергию (от 20 % поглощаемую атмосферой в целом), в т.ч. жестких коротковолновых (короче 280 нм) ультрафиолетовых лучей и предохраняет биосферу от их губительного воздействия. Э.о. исследуется с начала 60 – х годов пролого столетия. По данным американских специалистов Э.о.

mavjud bo'lgan joylari majmui (biosferaning biotopi). E. maydon jihatdan troposferani, gidrosferaning barcha qismini va litosferaning yuqori qatlamini o'z ichiga oladi; 2) biosferaning sinonimi; 3) fazoviy jismlar majmuasi va uning fazoviy bo'shliq muhitiga ta'siri, masalan, Quyosh ekosferasining ta'siri (Reymers, Yablokov, 1982).

Экотоп (< гр. oikos – uy, vatan + topos – o'rin, joy) — uyushmalarining yashash joyi. Boshqacha qilib aytganda E. ni biogeotsenozdagi abiotik omillar majmui deyish mumkin. Ular iqlim omillaridan (klimatop), tuproq omillaridan (edafotop) va suv omillaridan (gidrotop) iborat.

Экотид (< гр. oikos – uy, vatan + lot. caedere – o'ldirmoq) — yirik maydonlardagi yashash muhitini ataylab (qasddan) vayron qilish bilan tirik jonzodlarni qirib tashlash.

Озон екрани (< озон + fr. ekran – himoyalovchi qalqon) — atmosferaning stratosfera qavatida yerdan 20-25 km balandlikda озон gazi quyuqlashib, o'ziga xos «озон екрани»ni paydo qilgan. Bu ekran yupqa (qutblarda 1 mm, ekvatorда 3 mm) bo'lishiga qaramasdan quyosh enegiyasining 13% ni (atomsferada to'lig' incha tutiladigan 20% dan), shu jumladan qisqa to'liqinli (280 nm dan qisqa) ultrabinafsha nurlarini yutib qoladi va bu bilan u biosferani ularning halokatli ta'siridan asraydi. O.e. o'tgan asrning 60-yillari boshidan tadqiq qilib kelinmoqda. Amerikalik olimlarning fikricha O.e. har yili 1,0 % ga kamaymoqda. Qar. – *Ozonosfera*.

ежегодно уменьшается на 1,0 %.

См. — *Озоносфера*.

Экстразональность (лат. extra — сверх, вне + zone — пояс) — расположение природных сообществ, близких к характерным для какой-то географической зоны, в пределах других зон. Например, естественная растительность, находящаяся за пределами образуемой ею растительной зоны, т.е. вне своего ареала (произрастание некоторых хвойных пород деревьев высоких широт в населенных пунктах среднеазиатских республик).

Эктогенез (гр.ektos — вне, снаружи + genesis — происхождение) — направления в эволюционном учении, сторонники которых рассматривают историческое развитие живой природы как процесс прямого приспособления организмов к воздействию факторов внешней среды и простого суммирования изменений, приобретаемых организмами под воздействием среды, и отрицают роль естественного отбора (это — одностороннее преувеличение внешней среды в развитии органического мира). Ср. — *Автогенез*.

Эктопаразиты (< гр. ektos — вне, снаружи + parazitos — нахлебник) — организмы, паразитирующие на поверхности тела хозяина. Э. бывают *стационарными* (клопы, вши) и *временными* (комары, медицинские пиявки).

Элизия (<лат. elisio — выжимание, выталкивание) — исключение стенотрофного вида из сообщества в связи с меняющимися условиями обитания: 1) Э. *временная* —

Ekstrazonallik (lot. extra — yuqori, tashqarida + zone — mintaqa) — ma'lum bir geografik kenglik uchun xarakterli tabiiy birlashmalarining boshqa mintaqalarda ham uchrashi. Masalan, ba'zi tabiiy o'simlik turlarining o'z yashash arealidan tashqaridagi zonalarda ham uchrashi (bunga misol qilib shimoliy mintaqalardagi ba'zi ninabargli daraxt navlarining O'rta Osiyo aholi punktlarida tarqalib o'sayotganligini keltirish mumkin).

Ektogenez (gr.ektos — tashqaridan + genesis — kelib chiqish) — evolyusion ta'limotning yo'nalishi bo'lib, uning tarafdorlari jonli tabiat tarixiy rivojlanishini organizmlarning tashqi muhit omillari ta'siriga moslashishi va bu moslashishlar muhit omillari ta'sirida organizmlarda paydo bo'lgan o'zgarishlarning oddiy yig'indisi deb qarab, tabiiy tanlanishning ahamiyatini inkor etadilar (bu — organik dunyo rivojlanishida tashqi muhitning rolini bir tomonlama bo'rtirib ko'rsatish). Taqqos. — *Avtogenez*.

Ektoparazitlar (< гр. ektos — tashqarida, sirtida + parazitos — tekinox'o'r) — xo'jayinning gavda sirtida parazitlik qiluvchi organizmlar. E. *doimiy* (burgalar, bitlar) va *vaqtinchalik* (chivinlar, meditsina zuluklari) guruhlariga bo'linadi.

Eliziya (< lot. elisio — siqish, siqib chiqarish) — yashash sharoitlari o'zgarib ketishi bilan birlashma tarkibidan chiqib ketuvchi stenotrof turlar: 1) *vaqtinchalik* E. — ma'lum

исключение стенотрофного вида хищника в связи с истреблением его жертвы, который вновь включается в сообщество с появлением последнего; 2) Э. *окончательная* – вымирание видов растений и животных с изменением условий среды обитания.

Элиминация (лат. *elemino* – выношу за порог, удаляю) — гибель организма вследствие отрицательного влияния экологических факторов среды (биотических и абиотических). Различают двух видов элиминаций: 1) Э. *общая* – воздействие факторов среды крайней интенсивности, превосходящей экологическую пластичность вида, в результате чего происходит массовая гибель популяции, не зависимо от индивидуальных особенностей особи; 2) Э. *избирательная* – гибель части особой популяции, менее приспособленной к факторам окружающей среды, в результате борьбы за существование.

Эмиграция в природе (< лат. *emigrare* – переселяться, выселяться) — любое перемещение абиотических и биотических компонентов среды из места в место. Например, эмиграция химических элементов подвижными организмами, потоками воздуха и воды, миграция животных.

Энвайронменталистика — способы и методы очистки, реутилизации отходов и другие технологические приёмы улучшения среды.

Энвайронментология — комплексная дисциплина об окружающей природной среде, ее качестве

бирлашmada o'ljaning qirilib bitishidan yo'qolib, uning paydo bo'lishi bilan yana paydo bo'ladigan stenotrof yirtqich hayvon turi; 2) *uzilkesil E.* — yashash sharoiti o'zgarib ketishi bilan butunlay qirilib bitadigan o'simlik va hayvon turlari.

Eliminatsiya (lot. *elemino* – ostonadan chiqaraman, yo'qotaman) — muhit ekologik omillarining (biotik va abiotik omillarning) salbiy ta'siri natijasida organizmning halok bo'lishi. E. ning ikki turi farqlanadi: 1) *umumiy E.* — muhit omillarining ta'siri tur ekologik plastikligidan yuqori bo'lishi natijasida populyatsiyadagi individlarning individual xususiyatidan qat'iy nazar butun bir populyatsiyaning qirilib bitishi; 2) *tanlangan E.* – populyatsiyadagi organizmlar bir qismining muhit omillariga moslashaolmay yashash uchun kurashda yengilishdan halok bo'lishi.

Tabiatdagi emigratsiya (< lot. *emigrare* – ko'chmoq, chiqib ketmoq) — muhit abiotik va biotik komponentlarining bir yerdan boshqa yerga harqanday ko'chishlari. Masalan, harakatdagi organizmlar, havo va suv oqimlari vositasida kimyoviy elementlarning ko'chishi, hayvonlarning ko'chishlari.

Envayronmentalistika — chiqindilarni zararsizlantirish, ularni qauta ishlash va ulardan muhitni tozalashning boshqa texnologik usuli va yo'llari.

Envayronmentologiya — atrof tabiiy muhiti, uning sifati va muhofazasi to'g'risidagi kompleks fan. «E».

и охране. Термин «Э». редко употребляется, чаще применяются слова «охрана природы», «охрана окружающей среды» и т.д.

Эндемик (гр. endemos – местный) — местный вид, обитающий только в данном регионе (без ограничения площади) и не живущий в других. Например, Э. континента, Э. острова, Э. вершины гор и т.п. Развитию эндемизма способствуют географическая изоляция, климатические и эдафические условия, а также биотические факторы среды (паразитизм, конкуренция).

Эндогамия (< гр. endos – в, внутри + gamos – брак) — 1) характерный для первобытного строя обычай заключения браков внутри определенной общественной группы (напр. племени, род); тенденция к эндогамии есть и у многих современных народов (предпочтительные однопациональные браки); 2) слияние половых клеток близкородственных особей, приводящих к инбридингу. См. — *Инбридинг*.

Эндопаразиты (< гр. endos – в, внутри + parazitos – нахлебник) — организмы, паразитирующие внутри тела хозяина (в полости его тела, кишечнике, тканях и других органах). Например, аскарида, солитёр и многие другие.

Эндозоохория (< гр. endos – в, внутри + zoon – животное + choreo – продвигаюся, распространяюся) — один из разновидностей распространения растений или грибов с помощью животных. Имеет большое значение в их распространении в природе, т.к. плоды, семена и споры, невинимо

atamasi kamdan-kam ishlatiladi, ko'proq «tabiatni muhofaza qilish», «atrof muhitni muhofaza qilish» so'zlari qo'llaniladi.

Эндемик (гр. endemos – mahalliy) — faqatgina muayyan regionda (maydonning kattaligidan qat'iy nazar) yashab, boshqa joylarda uchramaydigan mahalliy tur. Masalan, qit'a E., orol E., tog' cho'qqilari E. va h.k.z. Endemizmning rivojlanishiga geografik to'siqlarning mavjidliligi, iqlim va tuproq sharoitlari, hamda muhitning biotik omillari (parazitizm, raqobat) sabab bo'ladi.

Эндोगамия (< гр. endos – ichida + gamos – nikoh) — 1) ibtidoiy jamiyatga xos bo'lgan ma'lum bir jamoa guruhi (mas., qabila. urug') ichidagi o'zaro nikoh; endogamiya hodisasiga moyillik ko'pgina zamonaviy xalqlarda ham mavjud (bir millat ichidagi o'zaro nikohlar); 2) yaqinqonli qarindoshlar jinsiy hujayralarining qo'shilishi bo'lib, bu inbriding hodisasiga olib keladi. Qar. — *Inbriding*.

Эндопаразитлар (< гр. endos – ichkarida + parazitos – tekjnxo'r) — xo'jayin gavdasida (gavda bo'shlig'ida, ichaklari, to'qimalari va h.k.z. da) parazitlik qilib yashovchi organizmlar. Masalan, askarida, solityor va ko'pgina boshqalar.

Эндозоохориya (< гр. endos – ichkarida + zoon – hayvon + choreo – siljiyman, tarqalaman) — o'simlik va zamburug'larning hayvonlar yordamida tarqalish turlaridan biri. E. ularning tabiatda tarqalishida muhim ahamiyatga ega, chunki hayvon iste'mol qilgan meva, urug' va sporalarning ovqat hazm qilish

проходящие через пищеварительный тракт животных, выводятся во внешнюю среду с их экскрементами, где с появлением оптимальных условий произрастания начинают развиваться.

Энергетика экологическая (< гр. *energeia* – деятельность + *экологическая*) — 1) комплексное научное направление, изучающее энергетические процессы в экосистемах; 2) энергетика, основанная на биологических источниках энергии, (напр., получение метана из культивируемых водорослей или навоза); 3) энергетика технологическая, базирующаяся на экологически безопасных источниках получения энергии (от сжатого воздуха, водородного топлива и т.п.).

Энтойкия — одна из форм *синойкии*, заключающей в квартирантстве внутри тела хозяина при отсутствии с ним пищевых связей (напр., мелкая рыба *Fierasfer* живёт в клоаке голотурии и периодически выходит наружу для питания рачками).

Энтомофаги (< гр. *entomon* – насекомое + *phagos* – пожирающий) — организмы, питающиеся насекомыми (насекомоядные беспозвоночные и позвоночные животные).

Энтомофауна (< гр. *entomon* – насекомое + *фауна*) — совокупность идов насекомых, составляющих фауну насекомых определенных территорий. Термин «Э». чаще применяется относительно регионам, микро- и мезоэкосистемам.

Энтомохория (< гр. *entomon* – насекомое + *choreo* – продвигаюсь,

sistemasi orqali hazm bo'lmisdan o'tgan qismi axlat bilan tashqariga chiqarib tashlanadi va tushgan joyida qulay sharoit paydo bo'lishi bilan u o'sib chiqadi.

Экологик энергетика (< *экологик* + гр. *energeia* – faaliyet) — 1) *эко-тизм*lardagi энергетик jarayonlarni o'rganuvchi kompleks ilmiy yo'nalish; 2) energiyaning biologik manba'lariga tayanuvchi энергетика sohasi (mas., go'ngdan yoki sun'iy ko'paytiriladigan suvo'tlaridan metan gazini olish); 3) energiyaning ekologik xavfsiz manbalaridan (siqilgan havodan, vodorod yoqilg'isidan va h.k.z. lardan) energiya olish bilan shug'ullanadigan texnologik энергетика sohasi.

Энтойкия — *синойкияning* bir organizm ikkinchisining ichida undan bevosita oziqlanmay yashashiga asoslangan bir shakli (mas., *Fierasfer* baliqchasi goloturiyaning kloakasida yashaydi va mayda qisqichbaqalar bilan oziqlanish uchun tashqariga chiqib turadi).

Энтомофаглар (<гр. *entomon* – hashao + *phagos* – yeydigan) — hasharotlar bilan oziqlanuvchi organizmlar (hashao + umurtqasizlar va umurtqali hayvonlar).

Энтомофауна (< гр.*entomon* – hasharot + *fauna*) — ma'lum maydonlarning hasharotlar faunasini tashkil qiluvchi hasharot turlari uyushmasi. «E.» atamasi ko'pincha alohida regionlarga, mikro- va mezoekotizimlarga nisbatan qo'llaniladi.

Энтомохориya (<гр.*entomon* – hasharot + *choreo* – siljiyman,

распространяюсь) — распространение в природе мелких плодов, семян и спор растений насекомыми. В природе нередко встречается также явление *зооэнтомохории* (смешанное распространение плодов, семян и спор растений, например, одновременно копытными млекопитающими и жуками — навозниками).

Эпибентос (< гр. еpi — на, над, сверх, после + benthos — глубина) — организмы, населяющие поверхность дна водоема.

Эпibiоз (< гр. еpi — на, над, сверх, при, после + biosis — жизнь) — поселение одних организмов на других, но не паразитирующих на них. Например, многие прикрепленные (сидячие) инфузории поселяются на поверхности тела различных живых организмов. Термин «Э.» приложим как к животным (эпифауна), так и к растительным (эпифиты) организмам.

Эпизоохория (< гр. еpi — на, над, сверх, при, после + зоон — животное + choreo — продвигаюсь, распространяюсь) — распространение плодов, семян и спор растений и грибов путем переноса их на покровах животных. Нередко распространяемые плоды, семена и споры имеют экологические приспособления для закрепления на животных (крючки, зацепки). Э. имеет зональное (местное) и интразональное (масштабное) значение. В интразональном распространении названных особое место занимают мигрирующие птицы.

Эпнойкия (эпойкия) — одна из форм *синойкии*, при которой более

тарқаланган) — o'simlikning mayda mevalari, urug'i va sporalarining tabiatda hasharotlar yordamida tarqalishi. Tabiatda ko'pincha *zoentomoxoriya* (aralash tarqalish, ya'ni meva, urug' va sporaning ham tuyuqli sut emizuvchilar va ham go'ngqo'ng'izlar yordamida tarqalishi) hodisasi ham uchrab turadi.

Эпибентос (< гр. еpi — да, сиртида, tepasida, keyin + benthos — chuqurlik) — suv havzasi tubining sirtida yashovchi organizmlar.

Эпibiоз (< гр. еpi — сиртида, ustida, qoshida, keyin + biosis — hayot) — bir organizmning boshqa organizm ustiga mingashib, ammo unga nisbatan parazitlik qilmasdan yashashi. Masalan, ko'pgina infuzoriyalar turli organizmlarning sirtiga tarmashib olib, o'troq holda yashaydi. «E.» atamasi ham hayvonlar (epifauna) va ham o'simliklar (epifitlar) uchun qo'llaniladi.

Эпизоохория (< гр. еpi — сиртида, ustida, qoshida, keyin + зоон — hayvon + choreo—siljiyman, tarqalaman) — o'simliklar va zamburug'larning mevasi, urug'i va sporalarining hayvonlar gavdasiga yopishib tarqalishi. Ko'pincha shu yo'l bilan tarqaladigan meva, urug' va sporalarda hayvonlarga yopishish uchun maxsus ekologik moslamalar (ilgaklar, changaklar) mavjud. E. ning zonal (mahalliy) va intrazonal ahamiyatga ega bo'lgan turlari mavjud. Ularning intrazonal tarqalishida ayniqsa kelib-ketuvchi qushlar katta rol o'ynaydi.

Эпнойкия (эпойкия) — *sinoykiyaning* bir shakli. Bunda mayda orga-

мелкие квартиранты поселяются на теле более крупного хозяина и используя последнего как средства передвижения, не имеют с ним пищевых связей (напр., усонogie рачки, рыбака – прилипала и т.п. поселяются на теле акулы и китов, а питаются только планктонными организмами).

Эпиорнис (< гр. еpi – на, над, сверх, при, после + орnis – птица) — весьма крупная (до 5м высотой) страусообразная птица, обитавшая на острове Мадагаскар и истребленная в XVII веке человеком.

Эпифауна (< гр. еpi – на, над, сверх, при, после + фауна) — животные организмы, прикрепленные к поверхности грунта, или свободно передвигающиеся по нему.

Эпифиты (< гр. еpi – на, над, сверх, при, после + phyton – растение) — растения, поселяющиеся на других растениях, главным образом древесных, но не паразитирующие на них (напр., повилка, виноград и др.) .

Эрозия (лат. erosio – разъедание) — разрушение горных пород, почвы или любых других образований с изменением свойств и целостности их поверхностей, обычно сопровождающееся переносом частиц с одного места на другое. Различают двух видов эрозии почвы – *естественная (геологическая)* и *искусственная (ускоренная)*. Естественная эрозия вызывается факторами абиотической среды, скорость её протекания идентична скорости почвообразования, поэтому она и заметного ущерба не наносит. Для сельского хозяйства опасна

низмар yirik xo'jayinning gavadasi ustiga mingashib, undan harakat vositasi sifatida foydalanadi, ammo u bilan ozuqa aloqalarida bo'lmaydi (mas., mo'ylovoyoqli qisqichbaqalar va yopishqoq baliqcha akula va kitlar gavadasi sirtiga joylashib oladi, ammo faqat mayda plankton organizmlar bilan oziqlanadi).

Еpiornis (gr. еpi – sirtida, ustida, qoshida, keyin + орnis – qush) — Madagaskar orolida yashagan va XVII asrda inson tomonidan qirib bitirilgan gavadasi o'ta yirik (balandligi 5m gacha) tuya-qushsimon qush.

Еpifauna (< гр. еpi – sirtida, ustida, qoshida, keyin + fauna) — tuproqning sirtiga maxkam o'mashib olgan yoki uning sirtida erkin harakatlanadigan hayvon organizmlari.

Еpifitlar (< гр. еpi – sirtida, ustida, qoshida, keyin + phyton – o'simlik) — boshqa o'simliklarga, ayniqsa daraxtlarga chirmashib o'sadigan, ammo ularda parazitlik qilmaydigan o'simliklar (mas., devpechak, uzum va boshq.).

Ерозиya (lot. erosio – kemirish) — tog` jinslari, tuproq va boshqa tabiiy hosilalarning xususiyatlari o'zgarib, ularning yaxlit sirti parchalanisi va zarralarining bir joydan boshqa joylarga ko'chib ketishi. Tuproq eroziyasi ikki xil bo'ladi: *tabiiy (geologik)* va *sun'iy (tezlashgan)* E. Tabiiy eroziya abiotik muhit omillari ta'sirida kelib chiqadi. Uning kechish tezligi tuproq hosil bo'lishi tezligiga yaqin bo'lgani uchun ham u sezilmaydi va deyarli zarar keltirmaydi. Qishloq xo'jaligi uchun xavfli tezlashgan E. Tezlashgan eroziya shamol yordamida ko'chish (*shamol eroziyasi* yoki *eol eroziyasi*)

ускоренная Э. Причинами ускоренной эрозии почвы служат, главным образом, ветер (*ветровая*, или *эоловая эрозия* — *дефляция*), вода (*водная эрозия*), химические и физические загрязнения среды, влияние биотических факторов (перевыпас скота, приводящий к уничтожению растительного покрова и вытаптыванию пастбищ). Эрозия почв зависит и от проводимых агротехнических мероприятий. При рациональных севооборотах её годовая скорость обычно не превышает 0,2–0,3 мм, при ежегодной монокультуре может достигать до 13 мм, т.е. превышает допустимый уровень в 4–6 раз. Восточные районы Узбекистана находятся под угрозой водной эрозии, а западные районы — под угрозой ветровой эрозии. Эрозия почвы в США официально признана «национальным бедствием американцев».

Эстуарий (лат. *aestuarium*) — широкое устье реки, впадающей в озеро, море или океан в местах, где прилегающая часть названных имеет большие глубины, а приносимые рекой наносы постоянно удаляются их течениями.

Эубактерии (< гр. *eu* — хорошо + *bacteria* — палочка) — эукариотные (*eu...* + гр. *karion* — ядро), то есть имеющие клеточное ядро одноклеточные бактерии. Э. не способны к фототрофному образу жизни. Многие из них неподвижны, отдельные виды перемещаются с помощью жгутиков.

Эффект парниковый (< лат. *effektus* (действие) + *парниковый*) — 1) увеличение температуры и влажности, связанное с тем, что

— *deflyatsiya*), сув bilan yuvilishdan (*suv eroziyasi*), shuningdek muhitning kimyoviy va fizik ifloslanishi hamda biotik omillarning ta'sirida (yaylovda molarning ko'plab boqilishidan o'simliklar qoplamasining yo'qolishi va tuproqning tuyoqlar bilan yanchilishidan) kelib chiqadi. Tuproq E. si otkazilayotgan agrotexnik tadbirlarga ham bog'liq. Almashtirish ekish to'g'ri qo'llanilgan maydonlarda uning yillik tezligi 0,2–0,3 mm dan oshmaydi, monokulturada esa yillik tezlik 13 mm gacha yetishi, ya'ni yo'l qo'yiladigan darajadan 4–6 marta oshishi mumkin. O'zbekistonning sharqiy qismiga suv eroziyasi, uning g'arbiy hududlariga esa shamol eroziyasi xavf solib turadi. Tuproq eroziyasi AQSh da «amerikaliklarning milliy kulfati» deb rasmiy ravishda e'tirof etilgan.

Estuariy (lot. *aestuarium*) — daryoning ko'liga, dengiz yoki okeanga yoyilib quyiladigan joyi. Bunday joylar chuqur bo'ladi, daryo oqizib kelayotgan yotqiziqalar esa suv oqimi bilan ularning ichkarisiga surib ketib turiladi.

Eubakteriyalar (< гр. *eu* — yaxshi + *bacteria* — tayoqcha) — eukariot (*eu...* + гр. *karion* — yadro), ya'ni hujayra yadrosiga ega bo'lgan bir hujayrali bakteriyalar. E. fototrof yashash tarziga ega emaslar. Ularning ko'pchiligi harakatsiz bo'lib, faqat ba'zi turlari xivchinlar yordamida harakatlanadilar.

Issiqxona effekti (< *issiqxona* + lot. *effektus* (harakat) — 1) quyoshdan kelayotgan qisqa to'lqinli nurning shaffof qoplamalar (shisha,

прозрачное покрытие (стекло, полиэтилен) свободно пропускает коротковолновых солнечных лучей, но не проницаемо для длинноволновых тепловых излучений (что отражает Земля) и водяных паров, в результате в замкнутом пространстве теплицы или парника наблюдается повышение температуры и влажности; 2) постепенное потепление климата Земли в результате накопления в приземном слое атмосферы углекислого газа, действующего аналогично стеклу и пленки. Из-за повышения объема содержания углекислого газа в атмосфере на 20% за период 1975-2000 г.г. температура на Земле повысилась в среднем на 0,7-1,0 °C. За Полярным кругом потепление достигло до 2 °C, на Северном полюсе подледная вода потеплела на 1 °C и ледяной покров начал подтаивать снизу (Яншин А.Д., 1999). Э.п. предсказан С.Арренисом (1829-1927) в начале XX века.

Ювенильность у растений (< лат. juvenilis – юный) — возрастное состояние в период от появления проростка до начала цветения, в котором растения способны к усиленному образованию вегетативных органов и еще не готовы к генеративному развитию. Длительность ювенильного периода может регулироваться разными факторами среды, в т.ч. приспособительными реакциями — ярговизацией и фотопериодизмом.

Юрский период (по названию гор Юра в Швейцарии и Франции) — второй период мезозойской эры.

polietilen) orqali yerga o'tib, yerdan sinib chiqqan uzun to'liqinli nur va suv bug'larining bunday qoplamadan tashqariga chiqib ketaolmasligi natijasida yopiq fazoda harorat va namlikning ko'tarilishi; 2) yer atom-sferasining pastki qavatida karbonat anhidrid gazining ko'payaborishi bilan yer yuzida sodir bo'layotgan o'rtacha harorat ko'tarilaborishi (bu yerda karbonat anhidrid gazi shaffof qoplama singari harakat qiladi). 1975–2000-yillar davomida atom-sfera havosi tarkibida karbonat anhidrid gazi hajmining 20% ga ko'payishi Sayyoramiz haroratini o'rtacha 0,7-1,0°C ga ko'tardi. Haroratning ko'tarilishi Qutblar doirasida 2°C gacha etdi. Buning oqibatida Shimoliy qutbda muz ostidagi suvning harorati 1°C ga ko'tarilib, muz qoplami ostki tomondan erishga boshladi (Yanshin A.D., 1999). I.e. ni S. Arrenis (1829-1927) XX asr boshlarida bashorat qilgan.

Ю

O'simliklardagi yuvenillik (< lot. juvenilis – yosh) — yoshiga ko'ra kurtak hosil bo'lishidan gullashgacha davom etadigan davr bo'lib, bu davrda o'simlik vegetativ organlar hosil qilishni kuchaytiradi, ammo hali generativ rivojlanish qobiliyatiga ega bo'lmaydi. Yuvenil davrining davomiyligi muhitning turli omillari, shu jumladan moslanish reaksiyalari — yarovizatsiya va fotoperiodizm bilan tartibga solib turiladi.

Yura davri (Shveysariya va Fransiya-dagi Yura tog'larining nomidan olingan) — mezozoy erasining ikkinchi

Продолжительность 55-60 млн. лет. Предшествует период мела и последует периода триас. Ю.п. подразделяется на 3 эпох — ранняя (лейас), средняя (доггер) и поздняя (мальм). Климат в ранней и средней эпохи — влажный, а в поздней — сухой. Период характеризуется возникновением Атлантического океана. В рассвете динозавры, ихтиозавры, плезиозавры и птерозавры. В конце Ю.п. появились первоптицы (архиоптерикс). Во многих регионах ускорился процесс накопления угля. См. — *Общая стратиграфическая и геохронологическая шкала.*

Я

Ядохимикаты — химические вещества, используемые для борьбы с нежелательными в хозяйственном отношении организмами. К Я. относятся *гербициды, пестициды, дефолианты* и др.

Ярус — 1) часть слоя в сообществе растений, к которой приурочены функционально различные их органы (*надземные* — листья и стебли; *подземные* — корни, клубни и луковицы); 2) вертикальная толща, образованная надземной частью растительной экобиоморфы (деревьями, кустарниками, травами) и сопряженными с нею консументами и редуцентами (напр., первый ярус древостоя, второй ярус древостоя, ярус подлеска и т.д.).

Ярусность — вертикальная расчлененность растительного сообщества (или наземной экосистемы), на горизонты, слои, ярусы, пологи и другие структурные и (или) функциональные толщи.

davri. Davomliligi 55-60 mln. yil. Triasdan keyingi, bo'r davridan oldingi davr. Yu.d. 3 ta epoxaga bo'linadi — erta (leyas), o'rta (dogger) va kechki (malm). Iqlimi erta va o'rta epoxalarda — sernam, kechkida — quruq. Atlantika okeani paydo bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Dinozavrlar, ixtiozavrlar, plezizozavrlar va pterozavrlarning ravnaq topgan davri. Yu.d. ning oxirlarida dastlabki qushlar (arxiopterix) paydo bo'lgan. Ko'pgina mintaqalarda ko'mir to'planish jarayoni tezlashgan. Qar. — *Umumiy stratigrafik va geoxronologik shkala.*

Кимйовий zahar — xo'jalik yurgizishda xalaqit beradigan organizmlarga qarshi kurashda foydalaniladigan kimyoviy zaharlar. Ularga gerbitsidlar, pestsitsidlar, defoliantlar va boshq. lar kiradi.

Yarus — 1) birlashmadagi o'simliklarning funksional jihatdan turli xil organlari (*yer usti* — shox va barglar; *yer osti* — ildiz, tunganak va piyozlar) joylashgan qavat; 2) o'simliklarning yer usti ekobiomorfasi (ya'ni daraxtlar, butalar va o'tchil o'simliklardan) va ular bilan bog'liq bo'lgan konsumentlar hamda redutsentlardan tashkil topgan vertikal qatlam (mas., daraxtning birinchi yarusi, daraxtning ikkinchi yarusi, daraxt osti o'simliklar yarusi va h.k.z.).

Yaruslilik — o'simliklar uyushmalarining (yoki yer usti ekotizimlarining) vertikal gorizontlarga, qavatlariga, yaruslarga va boshqa tarkibiy va (yoki) funksional qatlamlarga bo'linishi.

Общая стратиграфическая и геохронологическая шкала

Эон (зонотема)	Эра (эратема)	Период (система)	Эпоха (отдел)	Изотопные датировки, млн лет	
ФАНАЕРОЗОЙ	КАЙНАЗОЙ	Четвертичный (антропогенный)	Голоцен	1,8	
			Плейстоцен		
		Неогеновый	Плиоцен	25±2	
			Миоцен		
		Палеогеновый	Олигоцен	66±3	
			Эоцен		
	Палеоцен				
	МЕЗОЗОЙ	Меловой	Поздняя	136±5	
			Ранняя		
		Юрский	Поздняя	190-195±5	
			Средняя		
		Триасовый	Ранняя	230±10	
			Поздняя		
			Средняя		
		ПАЛЕОЗОЙ	Пермский	Поздняя	280±10
				Ранняя	
	Каменноугольный		Поздняя	345±10	
			Средняя		
			Ранняя		
	Девонский		Поздняя	400±10	
			Средняя		
			Ранняя		
	Силурийский		Поздняя	435±10	
			Ранняя		
Ордовикский	Поздняя		490±15		
	Средняя				
	Ранняя				
Кембрийский	Поздняя	570±20			
	Средняя				
	Ранняя				
КРИПТОЗОЙ (ДОКЕМБРИЙ)	Венд			650-690±20	
	ПРОТЕ- РОЗОЙ	Верхний (Рифей)	Верхний	1050±30	
			Средний	1350±30	
			Нижний	1650±50	
		Нижний (Карелий)		2500±100	
	АРХЕЙ			>3500	

Umumiy stratigrafik va geoxronologik shkala

Eon (eonoterna)	Era (eralema)	Davr (tizim)	Epoxa (bo'lim)	Bo'lib o'tgan muddat- lar, mln yil.		
FANEROZOY	KAYNOZOY	To'rtlamchi (antropogen)	Goltsen Pleystotsen	1,8		
		Neogen	Miotsen Oligotsen Eotsen	25±2		
		Paleogen	Paleotsen	66±3		
		MEZOZOY	Bo'r	Kech Etra	136±5	
			Yura	Kech O'tra Etra	190-195±5	
			Trias	Kech O'tra Etra	230±10	
		PALEOZOY	Pern	Kech Etra	280±10	
			Toshko'mir	Kech O'tra Etra	345±10	
			Devon	Kech O'tra Etra	400±10	
			Silur	Kech Etra	435±10	
	Ordovik		Kech	490±15		
			O'tra			
			Etra			
	Kembriy		Kech	570±20		
			O'tra			
			Etra			
	KRIPTOZOY (KEMBRIYGACHA)	ARXEY	Vend		650-690±20	
			PROTE-ROZOY	Yugori (Rifey)	Yugori O'tra Quy	1050±30 1350±30 1650±50
				Quy (Kareliy)		2500±100
						>3500

САЛИМОВ ХАЛИК ВАХАБОВИЧ

**EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA
QILISH VA TABIATDAN FOYDALANISH
BO‘YICHA ATAMA VA TUSHUNCHALARNING
IZOHLI LUG‘ATI**

**РУССКО-УЗБЕКСКИЙ ТОЛКОВЫЙ СЛОВАРЬ
по экологии, охране окружающей среды и природопользованию**

(термины и понятия)

Ташкент – «Fan va texnologiya» – 2009

Редактор:	Д.Вахидова
Тех. редактор:	А.Мойдинов
Корректор:	Ж.Тураханов
Компьютерная верстка:	Н.Хасанова

**Разрешено в печать 12.06.09. Формат 60x84¹/₁₆.
Гарнитура «Темis New Roman». Печать офсетная. Ус.печ.л. 21,5.
Изд.печ.л. 21,0. Тиражи 2000. Заказ № 96.**

**Отпечатано в типографии «Fan va texnologiya Markazining bosmaxonasi».
100003, г. Ташкент, ул. Алмазар, 171.**